

OLAM NURGA TO'LSIN SEN BILAN, NAVRO'Z!

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Postda На почте

2024-yil
21-mart
payshanba

№ 12 (4654)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz



MUDOM YURT TINCHINI ASRAMOQ KERAK



«NAMUNALI MAHALLA HUQUQ-TARTIBOT MASKANI» KO'RIK-TANLOVI G'OLIBLARI

Farg'ona viloyati Bag'dod tumani «Guliston» mahalla huquq-tartibot maskani

NOMINATSIYALAR:

«Eng faol sektor rahbari»

– Jizzax viloyati Do'stlik tumani IIB boshlig'i, 3-sektor rahbari, **podpolkovnik Sherzod Qosimov**.

«Eng faol xotin-qizlar masalari bo'yicha inspektor»

– Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar IIOFMB JXX HPB katta inspektori, **podpolkovnik Ayjamol Namenova**.

«Eng faol yo'l-patrul xizmati inspektori»

– Sirdaryo viloyati IIB YHXB katta inspektori, **kichik serjant Mavlon Xo'razov**.

«Eng faol patrul-post xizmati inspektori»

– Navoiy viloyati IIB JTSB PPX batalyoni inspektori, **safdor Umidjon Razakov**.

«Eng faol probatsiya xizmati inspektori»

– Xorazm viloyati Xiva tumani IIB JXX Probatsiya guruhi katta inspektori, **kapitan Hamrobek Jumaniyozov**.

«Eng faol profilaktika inspektori»

– Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani IIB HPB profilaktika inspektori, **kapitan Jasur Jumayev**.

▶ YANGI O'ZBEKISTON – YANGI ICHKI ISHLAR ORGANLARI

MUDOM YURT TINCHINI



IIV Madaniyat sa-royida bo'lib o'tgan tanlovning respublika bosqichida Bosh vazir o'rinbosari Zulayho Mahkamova, O'zbekiston Respublikasi Senati qo'mita raisi Qutbidin Burxonov, O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Ozoda Parpiboyeva, Oliy Majlis Senati Xotin-qizlar va gender tenglik qo'mitasi raisi Malika Kadirxanova hamda huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning mas'ul rahbarlari ishtirok etishdi.

Tantanali tadbirni ochib bergan Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat Bobojonov ushbu tanlov huquq-tartibot maskanlari faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishda muhim vosita bo'lib xizmat

Mamlakatimizdagi kriminogen vaziyatni yaxshilash va mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish masalasi davlatimiz rahbarining doimiy diqqat markazida. Prezidentimizning 2021-yil 2-apreldagi «Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori bu boradagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi.



Har bir tuman-shahardagi sektor rahbari bilan bir qatorda, «mahalla yetiligi» mahallaning o'zida barcha muammoli masalalarga barham berish bo'yicha samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Xususan, o'tgan yil davomida profilaktika inspektorlari tomonidan aniqlangan barcha ma'muriy huquqbuzarliklar yuzasidan qonuniy choralar ko'rildi. Shuningdek, 3 mingga yaqin yoki har uchinchi mahallada bironta ham jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi.

Olib borilgan islohotlar samarasi o'laroq, mahallalarda xavfsizlikni ta'minlashda huquq-tartibot maskanlarining roli yuqori bo'lmoqda. Shuning uchun ham, IIV, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Milliy telera-diokompaniya, Ma'naviyat va ma'rifat markazining «**Namunali mahalla huquq-tartibot maskani**» ko'rik-tanlovini o'tkazish to'g'risidagi qo'shma qarori asosida o'tkazilgan ko'rik-tanlovda respublikadagi barcha maskanlar dastlab tuman, so'ngra esa 4 ta mintaqada bosqichida tashkil etildi.



Mazkur maskanlar joylashgan mahalladagi profilaktika va xotin-qizlar inspektorlari, yo'l-patrul, patrul-post va probatsiya xizmati xodimlari, mahalla raislari, hokim yordamchilari, xotin-qizlar faollari, yoshlar yetakchilari hamda tuman-shahar sektor rahbarlarining faoliyati jami 11 ta nominatsiya asosida baholandi.

qilishi, shuningdek, mahalla faollari va keng jamoatchilik hududlarni jinoyatlardan xoli maskanga aylantirish borasida muhim qadamlar tashlaganini alohida e'tirof etdi.

Shundan so'ng sahnaga sportning boks turi bo'yicha super o'rta vazn toifasida WBA kamarini qo'lga kiritib, professional boks bo'yicha yangi jahon chempioni bo'lgan Isroil Madrimov taklif etildi. Vazir O'zbekistonni yana bir bor dunyoga tanitgan o'zbek o'g'loniga muddatidan oldin



ASRAMOQ KERAK

«mayor» maxsus unvoni va esdalik sovg'alarini tantanali tarzda topshirdi.

– Prezidentimiz tomonidan taqdirlanganim, bugun Ichki ishlar vaziridan «mayor» maxsus unvonini qabul qilib olganim juda quvonchli voqea bo'ldi, – deydi Toshkent viloyati IIBB TVBSO xodimi Isroil Madrimov. – Bunday ishonch va e'tirof menga yanada mas'uliyat yuklaydi hamda sohadagi keyingi faoliyatimda kuch bag'ishlaydi. Maqsadim musobaqalarga yanada jiddiy tayyorgarlik ko'rib, professional boksdagi boshqa kamarlarni ham qo'lga kiritib, mutlaq g'olib bo'lish va Vatanimiz bayrog'ini yanada yuqoriga ko'tarish.

Nihoyat tanlov g'oliblari e'lon qilindi. «Eng faol profilaktika inspektori» nominatsiyasi bo'yicha g'oliblikni Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani IIB HPB profilaktika inspektori, kapitan Jasur Jumayev qo'lga kiritdi. «Eng faol mahalla fuqarolar yig'ini raisi» nominatsiyasi bo'yicha Toshkent shahar Olmazor tumani «Ziyo» MFY raisi Ubaydullo Mamajonov e'tirof etildi. Namangan viloyati Chortoq tumani «Bog'» MFY hokim yordamchisi Islomjon Abdulhamidov «Eng faol hokim yordamchisi» nominatsiyasiga munosib ko'rildi. «Eng namunali xotin-qizlar faoli» nominatsiyasi bo'yicha Samarqand viloyati Jomboy tumani «Naymantepa» mahallasi xotin-qizlar faoli Sanobar Abdullayeva tengsiz bo'ldi.

– Hududimizda aholi soni 5000 nafarni tashkil etadi,



– deydi Chiroqchi tumani «Mustaqillik» mahallasidagi 6-sonli huquq-tartibot maskani profilaktika inspektori, kapitan Jasur Jumayev. – O'tgan yil davomida hudud-da birorta ham jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi. Jinoyatchilik va huquqbuzarlikni jilovlashda hamda bugungi yutuqlarga erishish zahirida «mahalla yetiligi» bilan hamkorlikda olib borilgan sa'y-harakatlar yotibdi, deb o'ylayman. Prezidentimiz va vazirlik rahbariyati tomonidan bizga bildirilgan ishonchni oqlash uchun kelgusida yanada shijoat bilan xizmat qilamiz.



Tanlovning «Eng faol yoshlar yetakchisi» nominatsiyasi bo'yicha g'oliblik Andijon shahar «Ma'rifat» MFY yoshlar yetakchisi Yunusbek Abdug'afforovga nasib etdi. Shuningdek, «Eng faol xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektori» nominatsiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar IIOFMB JXX HPB katta inspektori, podpolkovnik Ayjamol Namenova g'olib bo'ldi. «Eng faol yo'l-patrul xizmati inspektori» sifatida Sirdaryo viloyati IIB JXX YHXB katta inspektori, kichik serjant Mavlon Xo'razov e'tirof etildi. Navoiy viloyati IIB JXX JTSP PPX batalyoni inspektori, safdor Umidjon Razakov «Eng faol patrul-post xizmati inspektori» nominatsiyasi bo'yicha g'oliblikka sazovor bo'ldi. «Eng faol probatsiya xizmati inspektori» – Xorazm viloyati Xiva

bo'yicha 3-o'ringa ikki hudud – Jizzax viloyati Do'stlik tumani «Saritepa» mahalla huquq-tartibot maskani (profilaktika katta inspektori, mayor Ilhom Shodmonov) hamda Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi Ahmad Yassaviy nomli mahalla huquq-tartibot maskani (profilaktika katta inspektori, kapitan Siroj Pirmetov) loyiq ko'rildi. 2-o'rin esa Buxoro viloyati Buxoro tumani «Rabotiqalmoq» mahalla huquq-tartibot maskani (profilaktika katta inspektori, kapitan Shahob Ismoilov) munosib deb topildi.

Boshlovchi eng hayajonli daqiqalar yaqinlashayotganini bildirdi. Ya'ni, ko'rik-tanlovning faxrli 1-o'rin sohibini aniqlash fursati yetgan edi. Uni aniqlab berish uchun O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat Bobojonov sahnaga taklif etildi. Vazir Farg'ona



tumani IIB JXX Probatsiya guruhi katta inspektori, kapitan Hamrobek Jumaniyozov bo'ldi.

Shuningdek, tanlovning «Eng faol sektor rahbari» nominatsiyasi bo'yicha Jizzax viloyati Do'stlik tumani IIB boshlig'i, 3-sektor rahbari, podpolkovnik Sherzod Qosimov, Toshkent viloyati Zangiota tumani 1-sektor rahbari Erkin Rustamov, Buxoro viloyati Buxoro tumani 2-sektor rahbari Karim Ikramov, Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani 4-sektor rahbari Rahmatilla Sattarovlar g'olib deb topildi.

Ko'rik-tanlovning «Eng namunali mahalla huquq-tartibot maskani» yo'nalishi

viloyati Bag'dod tumani «Guliston» mahalla huquq-tartibot maskani profilaktika inspektori, kapitan Ikromjon Sotvoldiyevga g'oliblik diplomi va xizmatda foydalanish uchun «BYD Chazor» elektromobil kalitini tantanali ravishda topshirdi.

Tadbirga bayramona ruh bag'ishlash uchun IIV Madaniyat saroyi Ashula va raqs ansambli xonandalari o'zlarining kuy-qo'shiqlari, so'z ustalari esa ichakuzdi hangomalari bilan chiqishlar qilishdi. Bu tadbir ishtirokchilariga yanada ko'tarinkilik baxsh etdi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.
Abu KENJAYEV
olgan suratlar.



■ Андижанская область

ДОВЕРИЕ, УПОРСТВО, ТЕРПЕНИЕ

С недавнего времени в вузах работают инспекторы профилактики по работе с молодежью. Они отвечают за безопасность и предупреждение преступлений в высших учебных заведениях. О том, какие обязанности возложены на инспекторов мы попросили рассказать старшего инспектора профилактики майора Изатилло Каххорова.

На каком бы участке не работал майор И. Каххоров, везде он наводил надлежащий порядок, сводил к минимуму правонарушения.

Будни инспектора начинаются с общения с тьюторами, которые есть на каждом курсе. «Тьютор» означает «наставник», «опекун», «попечитель». Тьюторы в вузах тоже появились недавно, они помогают психологам и инспекторам, мониторят посещаемость студентов, оказывают им помощь.

– В Андижанском машиностроительном институте более 1400 студентов проживают в трех общежитиях, свыше 600 на съемных квартирах, есть среди них и те, кто привлекался к административной ответственности, – рассказывает И. Каххоров. – На днях, во время проверки в вечернее время, в одной из комнат общежития мы обнаружили, что четверо студентов распивают спиртные напитки. Провели беседу с нарушителями, объяснили, что в случае повторения



«Тьютор» означает «наставник», «опекун», «попечитель». Тьюторы в вузах тоже появились недавно, они помогают психологам и инспекторам, мониторят посещаемость студентов, оказывают им помощь.

подобной ситуации, они могут быть отчислены. В своей работе мы акцентируем внимание на студентах, проживающих на съемных квартирах, проводим поквартирные обходы, знакомимся с ус-

ловиями, организовываем профилактические беседы.

Изатилло начал службу в 2001 году с должности водителя дежурной части УВД, окончил Андижанский государственный университет. С 2016 года ведет деятельность в службе профилак-

тики. Своим наставником он считает майора Абдулхамиди Нишонова, который щедро делился знаниями и передавал служебный и жизненный опыт.

Старший инспектор профилактики сам уже давно наставник молодых сотрудников. Его ученики – майор Фазлиддин Юлдашев, капитан Бахтиёр Ходжаев и лейтенант Фуркат Бокиев служат на соседних участках. В случае надобности за советом и помощью обращаются к своему наставнику.

– Работаю в тесном контакте с руководством института и лидером молодежного движения Илхомжоном Кобуловым. Решаем задачи по недопущению правонарушений среди студентов, принимаем меры по вовлечению их в занятия физкультурой и спортом, в кружки по углубленному изучению английского языка. Решаем наиболее сложные проблемы, – делится И. Каххоров. – Делаем все для того, чтобы они стали достойными сынами и дочерьми нашей Родины.

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.

На снимке: майор Изатилло Каххоров (в центре) с лейтенантом Фуркат-беком Бокиевым и старшим лейтенантом Собиржоном Иминжоновым.

■ Сырдарьинская область

Общественное обсуждение в махалле Шодлик Сайхунабадского района прошло в критическом духе. На собрании с участием руководителей УВД Сырдарьинской области, секторов, махаллинского актива говорилось о невнимательности и попустительстве, в результате чего не удалось предотвратить два преступления.

Махалля Шодлик – одна из густонаселенных в Сайхунабаде. До последнего времени криминогенная обстановка здесь была благополучной, и махалля входила в категорию «зеленых».

Но два случая – мошенничество и хранение наркотических веществ – всполошили общественность.

Некто К. Д. с недавних пор пристрастился к спиртному, вел беспор-

ядочный образ жизни. Успокаивало, что никаких жалоб в его адрес не поступало, человек вел себя смирно. Но в один из дней его уличили в хранении наркотических веществ.

Другой возмутитель спокойствия занимал ответственную должность на предприятии электрических сетей района. За сокрытие акта о незаконном использовании электроэнергии он



пытался «заработать» кругленькую сумму. В момент получения взятки от руководителя фермерского хозяйства был пойман с поличным. Это говорит о недостаточности профилактических мероприятий, проводимых как на предприятии, так и по месту жительства.

На собрании критике подверглись те, кому по долгу службы надлежало проявить бдительность. Общественность тоже не должна была стоять в стороне. Из сказанного были сделаны соответствующие выводы. Хорошо, что удалось пресечь деяния злоумышленников, иначе их дурной пример мог бы заразить еще кого-нибудь.

Соб. корр.



ЯҚИН ТАРИХ САҲИФАЛАРИДА



БУКИЛМАС ИРОДА, СОБИТ ЭЪТИҚОД

1927 йилнинг 16 сентябрида Самарқанд вилояти Жиззах туманининг Равонлиқ қишлоғида оддий мироб оиласида ўғил фарзанд дунёга келди. Унга отасининг муродини ушалтирди, энди келгуси орзу-ниятларини ҳам рўёбга чиқарсин деган ниятда Отамурод дея исм қўйишди.

фидойиларча хизмат қилиб, ушбу ҳудуднинг кўп миллатли аҳолисининг ишончини, ҳурматини қозонди.

1976 йилда Отамурод Мухаммадиев криминоген вазият бирмунча оғир бўлган Самарқанд вилояти ИИБ бошлиғи этиб тайинланди.

Ўтган қисқа давр ичида вазиятни тубдан яхшилашга эришгани учун унга «милиция генерал-майори» махсус унвони берилди.

Жумладан, Самарқанднинг сўлим гўшасида ички ишлар органлари ходимлари учун профилакторий-санаторий қурилишига бош-қош бўлди. Ҳозир вилоят ИИБ жойлашган муҳташам бино ҳам айнан шу

рининг совуқ кунларидан бирида дабдурустдан уни олиб кетишди. О. Мухаммадиевнинг ўша пайтлари Тошкент тумани прокуратурасида терговчи вазифасида ишлаган ўғли Бахтиёр Мухаммадиев шундай хотирлайди:

«Кечкурун ишдан келсам, отамни олиб кетишганини, уйда тинтув ўтказишганини айтишди. Тинтув натижалари ҳақида ҳеч қандай ҳужжат қолдиришмабди. Фақат телефон рақами ёзиб қолдиришибди. Ўша рақамга қўнғироқ қилдим. Гуруҳ раҳбари Н. Иванов билан суҳбатимиз шундай кечди:

– Тинтув натижалари бўйича баённома нусхасини қолдирмабсизлар. Ушбу ҳужжат билан танишсам бўладими?

ишдан бўшашим тўғрисида ариза ёзиб беришим борасида топшириқ олганини айтди. Эътироз билдирганим учун вилоят прокурори вазифасини бажарувчи Ю. Торобовнинг қабулига кирдик. У ҳам Марказдан келган «десантчилар»дан бири эди.

– Отаси қамоқда ўтирган одамнинг прокуратура соҳасида ишлашга ҳаққи йўқ, – деди у.

– Отамнинг айблари ҳали исботланмаган. Шахсни суд айбли-айбсиз деб топади, – дедим.

– Кимники агар Иттифоқ Прокуратураси қамаган экан, демек у юз фоиз айбдор, – деди Торобов гапни қисқа қилиб.

Хуллас, кўпни кўрган, ўзимдан ёши катталар билан маслаҳатлашиб, ихтиёрий-мажбурий тарзда ишдан бўшадим.

Отамга қарши кўрсатма бериши учун 300 га яқин шахс терговга жалб қилинган. Улардан икки кишигина қарши кўрсатма берган. Улардан бири ИИБ масъул раҳбарларидан эди. У «Икки марта менга пул берувди», – деган.

Юзлаштирув жараёнида эса ушбу ёлғон кўрсатмасидан тонган. Кейин ўла-ўлгунча отамиздан кечирим сўраб ўтди.

Иккинчи киши эса Қашқадарё вилояти ИИБ раҳбарларидан бири бўлган.

терговчилар жиноят ишининг отамга тегишли қисмини ҳаракатдан тугатишга мажбур бўлишган. Содда қилиб айтганда, иш судгача етиб бормай, 1987 йилда реабилитация асосларига кўра тугатилган.

Унгача отамиз айбсиз эканлигини, ноҳақ ҳибсхонада сақланганлигини баён қилиб, адолат истаб собиқ Иттифоқ Бош прокуроридан ва турли юқори давлат органларигача ёзма равишда мурожаат қилганмиз. Афсуски, барча мурожаатларимизга қисқа рад жавобини олганмиз».

Ноҳақ айбланиб, икки йилдан зиёд қамоқхонада сақланганида унга нима куч берди деб ўйлайсиз? Албатта, букилмас иродаси, собит эътиқоди. Зеро, адолат барибир тантанали қилишига, ҳақиқат қарор топишига қатъий ишонарди. Шу боисдан барча қийинчиликларга сабот билан бардош бериб, ўзига қўйилган асоссиз айбларни то охиригача дақиқаларгача рад этди.

Отамурод Мухаммадиев пенсияга чиққанларидан сўнг мустақиллик йилларида элимизнинг атоқли ва ардоқли фарзанди Шароф Рашидов номидаги халқаро фонд Марказий Кенгаши раисининг ўринбосари, мазкур фонднинг Бош директори вазифасида ишлади. У «Шундай ажойиб замонда чарчадим деб четга чиқсак, уят бўлади. Эл-юртимизнинг буюк келажаги йўлида ҳар биримиз қўлимиздан келганича меҳнат қилишимиз шарт. Чунки бу азиз Ватан – барчамизники», – дер эди.

«Ўзбекистонда хизмат кўрсатган юрист» фахрий унвони соҳиби, истеъфодаги генерал-майор О. Мухаммадиев ҳаётининг сўнгги кунларига қадар Ички ишлар вазирлиги Фахрийлар кенгаши аъзоси сифатида фаолият кўрсатиб, ёш ходимларни Ватанга ва касбга садоқат руҳида тарбиялаш ишига катта ҳисса қўшди.

«Яхшидан от қолади» дейди доно халқимиз. Отамурод Мухаммадиевни билганлар ҳали ҳам унинг номини ҳурмат-эътиром билан тилга олишади. У кўп йиллар мактаб ва техникумларда ёш авлодга қадар берган турмуш ўртоғи Кимё ая билан олти фарзандни тарбиялаб вояга етказди. Ўғилларидан Бахтиёр Мухаммадиев узоқ йиллар прокуратура органларида самарали хизмат қилиб, иззат-икром билан пенсияга чиққан. Эндilikда генерал бобосининг ишини набираси подполковник Отабек Мухаммадиев давом эттирмоқда. У ҳозирги кунда пойтахтимиздаги Янгиҳаёт тумани ИИОФМБ бошлиғининг ўринбосари лавозимида фаолият юритяпти.

Бобомурод ТОШЕВ.



инсоннинг саъй-ҳаракатлари билан бунёд этилган.

Генерал-майор Отамурод Мухаммадиевга юксак ишонч билдирилиб, 1983 йилда у республика Ички ишлар вазирининг ўринбосари этиб тайинланади. Янги лавозимда енг шимариб ишга киришиб кетди. Тизимдаги муаммоларни ўрганиш ва ҳал этиш мақсадида тез-тез хизмат сафарларига чиқарди. Унинг тақлифлари асосида ички ишлар органларининг фаолиятини янада такомиллаштириш, хизмат самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари кўрилди.

Ўтган асрнинг 80-йиллари ўрталарида собиқ Иттифоқ Бош прокуратураси вакиллари Т. Гдьян ва Н. Иванов бошчилигидаги «десантчилар» республикаимизнинг бошқа соҳалари ходимлари қатори кўплаб ички ишлар органлари раҳбарларига ҳам зуғум ўтказишди. Ноҳақ жабрланганлар орасида генерал-майор Отамурод Мухаммадиев ҳам бор эди. 1985 йил январь



– Жуда ўқимишли кўринасиз. – Қонун бузилганини билдирмоқчи, баённома билан танишмоқчи эдим.

– Бошлиғинг ҳозирда Торобовми? Сен билан кейин гаплашамиз!

Эртаси куни эрталаб мени вилоят прокуратураси кадрлар бўлими бошлиғи чақиртирди. Борсам, ўз ихтиёрим билан

У «О. Мухаммадиев хизмат сафари билан вилоятимизга келганида, ҳаво совиб кетди. Шу сабабли меҳмонхонада кийиб юришлари учун бир донна спорт кийими олиб келганман», – деган.

Отам 2 йилу 4 ой Москвадаги Лефортово тергов ҳибсхонасида сақланганлар. Далил-исбот етарли бўлмаганлиги сабабли

★ Ветераны всегда в строю

ОПТИМИЗМ ОБЯЗАТЕЛЕН

Службу в органах А. Курбанов начинал в далеком 1982 году, как и многие другие, после армии.

Рассказывая о былых годах, наш собеседник отметил, что это было непростое время: не хватало машин, эвакуаторов и вовсе не было, ДТП регистрировались вручную. Но коллектив слаженно работал на благо обеспечения безопасности на дорогах.

– Помню, постоянно не хватало сотрудников ДПС, личный состав работал с двойной нагрузкой, – вспоминает подполковник Курбанов. – Камер видеонаблюдения тогда не было. Чтобы найти нарушителя приходилось опрашивать очевидцев, поднимать регистрационные журналы. Угоны тоже были частым явлением. Из технических новинок в нашем распоряжении были только рация и стационарный телефон. Функции эвакуаторов выполняли трактористы, приходилось их просить о помощи.

– Сейчас инспекторы технически вооружены. Стало проще работать, да и случаи автоугонов происходят редко, – продолжил

Подполковник в отставке Аълам Курбанов посвятил тридцать лет службе в органах внутренних дел. За эти годы прошел путь от рядового инспектора ДПС до командира роты, начальника отдела безопасности дорожного движения Булунгурского РОВД. В последние годы возглавлял и технический, и регистрационно-экзаменационный отделы УБДД области.

наш собеседник. – Транспорта на дорогах стало в разы больше, соответственно и правонарушений меньше не становится.

Будучи на заслуженном отдыхе Аълам Курбанов не сидит дома. Он является председателем Совета ветеранов УБДД УВД и членом Совета ветеранов УВД области. Ведет активный образ жизни. В распорядке у него встречи с семьями погибших при исполнении служебного долга, организация встреч с сослуживцами, молодыми кадрами и не только. Каждый четверг ветераны-активисты собираются на футбольный матч. А недавно сборной команде ветеранов УБДД области удалось одержать победу в чемпионате среди сотрудников-ветеранов органов внутренних дел. В турнире приняли участие несколько



команд, представляющих разные структуры.

Аълам Курбанов передает накопленный опыт молодым сотрудникам. Свободное время посвящает семье – детям и вну-

кам. Один из внуков, Ахмаджон, также хочет служить Родине и пойти по стопам деда.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.

Самаркандская область.

■ Андижанская область

Недавно диагностический арсенал поликлиники Медицинского отдела УВД Андижанской области пополнили два современных аппарата: цифровая рентгеновская система и ультразвуковой аппарат УЗИ.

– Цифровая рентгенографическая система (ЦРС) предназначена для проведения всех видов рентгенографических исследований в цифровом формате при положении пациента стоя, сидя и лежа, применяемых в общей диагностике и травматологии, в условиях стационарных рентгеновских кабинетов медицинских учреждений, – рассказывает начальник поликлиники Медицинского отдела подполковник Акрамжон Мухитдинов. – Система обладает высокой скоростью получения изображений высокого качества, полностью моторизована, что обеспечивает быструю готовность для исследования. ЦРС дает возможность проведения комплексных рентгенографических ис-

С ЗАБОТОЙ О ЛЮДЯХ

Представители старшего поколения помнят лозунг «Здоровье народа – богатство страны». Долгое время он ничего не означал для миллионов людей, не имеющих возможности получить квалифицированную медицинскую помощь.



следований, принятых в общей рентгенологии для диагностирования заболеваний, определения ло-

кализации и протяженности выявленных патологических изменений, все виды рентгенографии, в

том числе грудной клетки, желудочно-кишечного тракта, черепа, скелета, урографию.

Стационарный передвижной медицинский цифровой многофункциональный УЗИ аппарат – ультразвуковой сканер «Mindray DC-40» имеет ряд инструментов с максимальной точностью диагностики. Сферы применения: общая визуализация, акушерство и гинекология, кардиология – везде аппарат предоставляет комплексные решения, включая эластографию, контрастную визуализацию, располагает широким спектром функций и пакетов прикладных программ, инструментов и встроенных обучающих программ.

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.

На снимке: лаборант рентгенолог Нозимахон Ахмаджон кизи за работой.



NURLI MASKAN ORZULARI

Qarshi shahridagi ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 18-sonli «Nurli maskan» maktab-internatida «Nurli maskan orzulari» IX respublika forumi bo'lib o'tdi. O'zaro tajriba almashish, ta'lim va tarbiya jarayonini, yoshlarga kasb-hunar o'rgatish ishlarini takomillashtirishga bag'ishlangan tadbirda respublika IIV va viloyat IIB rahbariyati, barcha hududlardagi maktab-internatlarning iqtidorli o'quvchilari, o'qituvchilari ishtirok etdi.

Tadbirni viloyat IIB boshlig'i, polkovnik Abduvohid Ismoilov ochib, forum ishtirokchilarini qutladi. Shundan so'ng IIV JXX HPB boshlig'i, polkovnik Baxtiyor Berdialiyeov so'zga chiqib, mamlakatimizda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, xususan, ko'zi ojiz va ko'rishda nuqsonga ega bo'lgan bolalarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirilayotganini ta'kidladi.

etish hamda intellektual, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda.

Forum ishtirokchilari, mehmonlar maktab-internatlar o'quvchilari tomonidan to'qilgan kiyim-kechaklar, ustaxonalarda yasalgan qo'l mehnati mahsulotlari ko'rgazmasini ko'zdan kechirishdi. 274 nafar o'quvchi ta'lim olayotgan 18-sonli «Nurli maskan» maktab-internatida yaratilgan shart-sharoitlar, jumladan, 3 mingdan ortiq kitoblar jam-

langan kutubxona bilan yaqindan tanishdilar.

Ta'lim maskanida ingliz, rus tillari va kompyuter xonalari, korreksion maxsus xonalar, aniq fanlarga ixtisoslashgan laboratoriyalar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Tikuvchilik, pazandalik, kompyuter savodxonligi, kasanachilik to'garaklariga esa barcha o'quvchilar qamrab olingan. Qolaversa, o'quvchilari yo'l harakati qoidalarini o'rganishi va ko'nikma hosil



Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning ta'lim olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni yanada yaxshilash, ularning jamiyatga moslashuviga ko'maklashishni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida ichki ishlar organlari tomonidan ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida sifatli ta'lim berish, o'quvchilarning maishiy sharoitlarini yaxshilash, shuningdek, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil



qilishi uchun maxsus jihozlangan ovozli yo'l harakati xavfsizligi maydonchasi bunyod etilgan. Barcha sharoitlarga ega 250 o'rinni yotoqxona ham ular ixtiyorida.

– O'tgan yili maktabni bitirgan o'quvchilarning 85 foizi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilindi, – deydi maktab direktori vazifasini bajaruvchi Quddrat Majidov. – O'quvchilarning sportda ham qator yutuqlarni qo'lga kiritishyapti. Jumladan, ayni paytda 8 nafar o'quvchi mamlakat va xalqaro turnirlar chempioni, 9 nafar o'quvchimiz esa respublika paradzyudo terma jamoasi a'zosi.

Tadbir yakunida forum qatnashchilari maktab-internat hududidagi 10 sotixli boqqa «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida 700 tupga yaqin turli mevali va manzarali ko'chatlar o'tqazishdi. Shuningdek, 12 ta ish o'rniga ega o'quv-ishlab chiqarish ustaxonasi foydalanishga topshirildi.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.
Qashqadaryo viloyati.



MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARS

MIRZO ULUG'BEK — BUYUK OLIM VA DAVLAT ARBOBI

U hukmdor sifatida Movarounnahrning har tomonlama rivojlanib, ilmiy va madaniy markazga aylanishiga katta e'tibor qaratdi. Matematika va astronomiya fanining eng yorqin vakillarini chaqirib, Samarqandda rasadxona qurishga farmon berdi.

Natijada 1424–1428-yillar oralig'ida Samarqandning shimolidagi Obirahmat arig'i bo'yida dunyoga mashhur rasadxona bunyod etiladi. Uning qurilishida o'z davrining mashhur olim va me'morlaridan Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid, Muhammad Ali Qushchilar ishtirok etishadi.

Abdurazzoq Samarqandiy ushbu nodir obidaning ichki qismini quyidagicha tasvirlaydi: «Binoning ichki qismi jahonda tengi yo'q rang-barang naqshlar bilan bezatilib, devor va shiftlarida osmon darajalari, daqiqalari, hatto soniyalarigacha hisoblanib, yetti sayyora hamda «harakatsiz» yulduzlar, shuningdek, yer kurasi, yetti iqlim, tog'-u sahralar va daryo-yu dengizlar hamda ummonlargacha tasvirlangan».

esa G'ijduvonda madrasalar qurirdi. Buxorodagi madrasa eshigining peshtoqiga «Ilm olishga intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir» degan hadisning bitilishi g'oyat muhim ahamiyatga egadir. Ushbu madrasada o'qish muddati 8 yil etib belgilanib, undagi talabalarga oylik maosh va «ulfa» deb ataluvchi maxsus to'lov amalga oshirilgan.

Ulug'bek qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahr diyorining donishmand hukmdori sifatida xalqning azaliy orzusi sanalgan tinchlik, totuvlik, ilmfan va madaniyatni taraqqiy toptirish yo'lida ulkan shijoat va matonat ko'rsatdi. Uning maktabiga mansub olimlarning aniqlagan ma'lumotlari ulardan bir necha asr oldin yashab o'tgan buyuk alomamlar erishgan natijalar bilan solishtirilganda, o'ta aniqligi bilan ajralib turadi. Ekliptika og'maligi, yulduz yilining hisobi, sayyoralarning yillik hi-

oshirilgan. U mazkur asarga sharh yozib, uning bir qismini 1648-yilda chop etadi. Gurjiston podshosi Vaxtand VI esa ushbu asarni 1724-yilda fors tilidan gruzinchaga tarjima qildiradi. Grinvich observatoriyasining birinchi direktori J. Flemstid ham 1725-yilda o'zining «Osmon tarixi» nomli kitobida uni chop etadi.

Samarqanddagi astronomiya maktabi uskunalaridan andaza olishgan.

Mirzo Ulug'bek davrida Samarqand astronomiya maktabining olamshumul yutuqlari Xitoy astronomiyasining rivojlanishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Iyezuit monax, olim Antuan Gobil (1689–1759) Xitoy astronomiyasi haqida: «Bu sohada Xitoylar

munajjim Muhammad Al-Misriy (XVI asr) Mirzo Ulug'bek «Ziji»ni osonlashtirish uchun «Tashil Ziji Ulug'bek» nomli asar yozadi va uning jadvallarini Qohira kengliklariga moslashtiradi.

Shu o'rinda keltirib o'tish joizki, Ulug'bek «Ziji Ko'ragoniy»dan tashqari, matematika faniga bag'ishlangan «Risolai Ulug'bek» hamda tarix sohasiga bag'ishlangan «Tarixi arba' ulus» («To'rt ulus tarixi») asarining muallifidir. Shuningdek, u she'rlar ham ijod qilib barchaga namuna bo'lgan.

Istiqlol yillarida Mirzo Ulug'bekning hayoti va faoliyatini o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchayib, Samarqand, Buxoro, G'ijduvon kabi tarixiy shaharlarimizda uning nomi bilan bog'liq me'moriy obida va qadamjolar obod qilindi. O'zbekiston milliy universiteti, Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti va boshqa bir qator ta'lim muassasalariga uning nomi berildi. Shuningdek, xalqaro ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida joylashgan kuzatuv kenglik stansiyasi hamda Fanlar akademiyasining Astronomiya instituti ham Mirzo Ulug'bek nomi bilan ataladi. Poytaxtimizning yirik Mirzo Ulug'bek tumanida ham uning haykali o'rnatildi. Mamlakatimiz va Parijdagi YUNESKO qarorgohida 1994-yili Ulug'bek tavalludining 600 yilligi katta tantanalar bilan nishonlandi. Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan 2009-yilni «Astronomiya yili» deb e'lon qilinishi Mirzo Ulug'bek tavalludining 615-yilini Samarqand va Parij shaharlarida yuqori darajada o'tkazilishiga sabab bo'ldi.

Muxtasar qilib aytganda, millatimiz faxr-iftixoriga aylangan bobokalonimizning boy ma'naviy merosini chuqur o'rganish va targ'ib qilish avlodlar zimmasidagi zalvorli vazifadir.

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.



Peterburg akademiyasining birinchi akademik-astronomi Jozef Nikola Delil o'z faoliyatining ilk kunlaridan boshlab, «Ziji Ko'ragoniy»ni lotin tiliga tarjima qilib, 1739-yilning 25-iyunida mazkur akademiya yada fransuz tilida ma'ruza so'zlagan. Italiyalik astronom Jovanni Richchioli 1651-yilda oydagi kraterlarni qadimda yashab o'tgan buyuk alomamlarning nomi bilan atashni taklif qilib, ulardan birini Mirzo Ulug'bek deb ataydi. Shuningdek, quyosh tizimining 1977-yilda ochilgan 2439 raqamli kichik sayyorasiga ham Ulug'bek nomi berilgan.

Dunyoning boshqa davlatlari qatori, Hindistonda ham Ulug'bekning ilmiy merosiga katta qiziqish bilan qaratilgan. Jumladan, Boburiy Muhammadshohning farmoyishi bilan XVIII asrning birinchi yarmida astronom Savay Jay Sinx tomonidan Jaypur, Banoras va Dehlida rasadxona barpo etilib, unga

nimani bilgan bo'lsa, ularning barchasi g'arbdan Samarqand tomonidan kelgan» deya ta'kidlagan edi.

Xitoy orqali Samarqand astronomiya maktabining yutuqlari Koreyada ham tarqalgan bo'lib, 1432-yilda mazkur davlat qiroli Yi Do Xitoy orqali Samarqand astronomiya maktabi bilan tanishadi. Shu tufayli Ulug'bek maktabining an'analari Koreyada ham rivojlanadi. Ali Qushchi 1470-yili Istanbulga boradi va u yerda ham Ulug'bek ilmiy maktabining natijalarini keng ommaga targ'ib qiladi.

Mirzo Ulug'bek «Ziji», eng avvalo, musulmon mamlakatlarida astronomiya fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan. «Ziji Ko'ragoniy» asariga eng mukammal sharh eronlik munajjim va riyoziyot olimi Nizomiddin Birjandiy tomonidan 1523-yilda yozilgan «Sharhi Ziji Ulug'bek»dir. Qohiralik



Buyuk bobokalonimiz davlatni boshqarishda ham adolatning ustuvorligiga alohida e'tibor bergan. Bu yerda istiqomat qilayotgan xalqning doimo farovon hayot kechirishi to'g'risida bosh qotirib, dehqonchilik, savdo-sotiq va madaniy hayotning gullab yashnashiga oid maxsus farmonlar chiqargan. Xususan, Oqsaroyini qayta ta'mirlab, Movarounnahrda yer solig'ini kamaytirgani buning yaqqol dalilidir.

Chakana savdoning rivojlanishi uchun 1428-yilda pul islohoti o'tkazib, bir qator qulayliklar yaratdi. Bundan tashqari, 1417–1420-yillar Samarqandda, 1432-yil Buxoroda, 1432–1433-yillarda

soibini aniqlash kabi masalalar shular jumlasidandir.

Ulug'bekning yulduzlar katalogi 1690-yili polyak olimi Yan Gavelyning (1611–1687) «Astronomiya darakchisi» nomli asarida nashr etilgan. Bu asarda Mirzo Ulug'bek besh astronom Ptolemey, Tixo Brage, Jovanni Richchioli, Vilgelm IV va Yan Gavely davrasida to'garak stoli atrofidagi astronomiya ma'budasi Uraniyaning o'ng tomonida o'tirganligi tasvirlangan. Uning o'rindig'i orqasidagi «O'z ishimni munosib avlodlarimga qoldirdim» degan so'zlarga guvoh bo'lish mumkin.

Mirzo Ulug'bek «Ziji»ning Yevropadagi ilk nashri Oksford universiteti professori Jon Grivs tomonidan amalga



XODIMNING BIR KUNI

ERTA BAHORNING
QISQA KUNI

Asli qiziltepalik Eldor Sattorov Konimex tumani IIB JXX probatsiya guruhi inspektori lavozimida faoliyat yuritadi. Bugun u ishini yaqindagina probatsiya nazoratiga olingan shaxslar bilan uchrashuvdan boshladi. O'zaro muloqot davomida ularning muammolarini o'rgandi, bandligini ta'minlash borasida suhbatlashdi.



So'ngra shu masala bo'yicha hamkor tashkilotlarga murojaat etdi. Natijada ayrim mahkumlar o'ziga munosib, mos ish bilan ta'minlandi. Ba'zilarining tibbiyot bo'limida sog'lig'ini tiklash masalasini hal etdi. Aksariyatiga moddiy-ijtimoiy ko'mak ko'rsatildi.

Tumanning «Birlik» mahallasida yashovchi 36 yoshli Muzaffar Umarov bir necha yil oldin o'g'rilik jinoyati sodir etgani uchun ozodlikdan mahrum qilingan edi. Yaqinda u jazoni ijo etish muassasasidan qaytib, probatsiya nazoratiga olindi. Lavhamiz qahramoni Muzaffar Umarovni tumandagi «Konimex obod chashmalari» xususiy korxonasiga yuk tashuvchi vazifasiga ishga joylashtirdi.



Tushdan so'ng sud majlisiga tayyorgarlik ko'rdi. Sud majlisida tuman IIB probatsiya guruhi nazoratidagi 5 nafar mahkumning taqdirida o'zgarish yasaldi. Xodimning qonuniy talablarini to'liq bajargan hamda belgilangan tartib-qoidalariga so'zsiz bo'ysungan, mehnatga halol

munosabatda bo'lgan 4 nafar mahkum tayinlangan jazodan muddatidan oldin ozod etildi. Aksincha, tayinli ishning boshini tutmay, qayta jinoyat sodir etishga uringan bir nafar mahkumning jazosi esa ozodlikdan mahrum etish jazosiga almashtirildi.



Nihoyat erta bahorning yana bir kuni yakuniga yetib, Konimexga tun cho'ka boshlagan mahal lavhamiz qahramonining xizmati ham yakuniga yetdi. Kapitan Eldor Sattorov ertangi kun rejasini tuzgach, uyi tomon – qadrdon oilasi bag'riga oshiqdi...

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

«UYGA AMALLAB YETVOLAMAN»,
DEB O'YLAGANDI...

– 2024-yil 12-fevral kuni soat 22:00 larda Samarqand shahar Hujum ko'chasida xizmat olib borayotgan vaqtimda «Nexia-2» rusumli avtomashinani boshqarib kelayotgan haydovchining harakatlari shubha uyg'otganligi uchun to'xtatmoqchi bo'ldim, – deydi Samarqand viloyati IIB JXX Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi YPX inspektori, safdor Bekzodjon Fayzullayev. – Ammo u harakatlanishda davom etgani bois ortidan ta'qib qilishga to'g'ri keldi. Berk ko'chaga kirib qolgan haydovchining spirtli ichimlik iste'mol qilgani shundoq sezilib turardi. Unga ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirib, avtomashina jarima maydoniga joylashtirildi.

Ertasi kuni B. Fayzullayev o'ziga biriktirilgan hududda xizmat olib borayotgan vaqtida uning oldiga tungi haydovchi Olim (ism o'zgartirilgan) kelib, unga nisbatan chora ko'rmaslik, to'plangan hujjatlarni YHXBga o'tkazmaslik hamda avtomashinasini jarima maydonidan chiqarib berish evaziga ikki million so'm miqdoridagi pullarni pora sifatida taklif qiladi.

Tezkor tadbir davomida huquqbuzarlikka qo'l urgan Olim va'da qilgan pullarini berayotgan vaqtida qo'lga olindi.

– Yurtimizda kecha-yu kunduz serqatnov yo'llar ko'p, – deydi B. Fayzullayev. – Bu, o'z navbatida, harakat ishtirokchilaridan e'tiborli, ziyrak bo'lishni talab qiladi. Afsuski, oramizda o'zi va boshqalarning hayotini xavf ostiga qo'yadiganlar ham yo'q emas. Ayniqsa, spirtli ichimlik iste'mol qilib, avtomashina boshqarish kechirib bo'lmaydigan xatodir. Chunki mast holatda avtomashina boshqarish bilan bog'liq hodisalarning yakuni juda ayanchlidir.

Yuqoridagi holatdan kelib chiqsak, Olimning bila turib xurmacha qiliqlar «muallifi»ga aylanishi achchiq haqiqatdir. Uning birinchi xatosini ikkinchisi bilan xaspo'shlashga urinishi yana bir muammo...

Ammo ayni chog'da yoqimli haqiqat ham bor. Ya'ni, Bekzodjon Fayzullayev singari kasbiga sadoqatli va fidoyi, halol xodimlar bor ekan, har qanday huquqbuzarliklar qonun doirasida baholanadi.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.



KASB FIDOYILARI

OTASIGA ERGASHIB...

Katta leytenant Mohinur Turobovani bolaligidan bilganlar kelajakda shu kasbni egallashiga shubha qilmasdi. Chunki u sho'x, polvon qizaloq bo'lib, nuqul o'g'il bolalar bilan o'rtoq tutinardi.

– Hatto o'zimga tengdosh o'g'il bolalar bilan kurash tushib, ancha-munchasini yengardim. Sinfda a'lochi, yetakchi edim. Otam shu sohada faoliyat olib borganliklari uchun, men boshqa kasb haqida o'ylab ham ko'rmasdim, – deydi Mohinur.

Lavhamiz qahramoni ulg'ayib, IIV Akademiyasida tahsil oldi. 2021-yildan buyon Karmana tumani IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor lavozimida faoliyat olib boradi. Turmush o'rtog'i Yodgor Turobov ham unga kasbdosh. Qo'shqanotlar ayni paytda yurt tinchligi va osoyishtaligi yo'lida fidokorona xizmat qilishmoqda.

Katta leytenant Mohinur Turobova tumandagi 70 mingdan ortiq ayollarning muammolarini bartaraf etish haqida o'ylaydi. Ularning

ko'makka muhtojlariga yordam qo'lini cho'zadi. Eng asosiysi, adashgan xotin-qizlarni to'g'ri yo'lga boshlaydi.

«Ko'hnaqo'rg'on» mahallasida istiqomat qiluvchi Sohiba Tursonova mohir qandolatchi, uch o'g'ilning onasi. Ammo eri ro'zg'or yukini yelkasiga olish o'rniga, xotinining pishiriqlar sotib, topgan puliga maishat qilishdan nariga o'tmaydi. Oilada shu masalada har kun janjal bo'lavergach, ayol oxiri Mohinurdan yordam so'radi. M. Turobova mahalla faollari, hududiy profilaktika inspektori bilan birga oila boshlig'ini tartibga chaqirishdi. Sohibaga himoya orderi rasmiylashtirildi. Unga tadbirkorligini kengaytirishi uchun pishiriq pechini olishda hamkorlar yordamida ko'maklashdi. Hozirda Sohibaning eri aybini tushunib, ayoliga pishi-



Suratda: Mohinur Turobova turmush o'rtog'i katta leytenant Yodgor Turobov bilan.

riqlarini do'konlarga tarqatishda ko'maklashmoqda.

Aytish joizki, katta leytenant Mohinur Turobova bo'sh vaqtida kitob mutolaa qilishni sevadi. Joriy yilda Buxoro shahrida bo'lib o'tgan «Ayollari e'zozlangan yurt»

ichki ishlar organlari 3-respublika forumida u «Eng yaxshi kitobxon xodima» ko'rik-tanlovida faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

FARZANDIMNING YUTUG'I

SULOLA DAVOMCHISI



Buxoroda polkovnik Egamberdi Shodmonovni tanimagan-bilmagan inson bo'lmasa kerak. U uzoq yillar ichki ishlar organlarida faoliyat ko'rsatib, pensiyaga chiqqan edi. Afsuski, oramizda yo'q. Bugun farzandlari Xudoyberdi va Shohruxjon ota ishining davomchilaridir. Lavhamiz qahramoni, viloyat IIB JXX YHXB Yo'l-patrul xizmati batalyoni 5-safarbarlik guruhi komandiri, leytenant Xudoyberdi Shodmonov farzandlari bilan haqli ravishda faxrlanadi.

– Bolaligim o'yinqaroqlik bilan o'tgan bo'lsa-da, otamning kasbiga bo'lgan qiziqishim bo'lakcha edi, – deya hikoyasini boshladi suhbatdoshim. – Ayniqsa, toza-ozoda kiyinib yurishlari, qo'ni qo'shnilar bilan muloqotlari meni o'ziga rom qilardi. Orzu-niyatni chin ko'ngildan istasangiz, bir kuni ro'yobga chiqarkan. 2006-yil men uchun omadli keldi: ham ichki ishlar organlariga qabul qilindim, ham to'ng'ich farzandim Shahriyorjon tug'ildi...

Shu tariqa, kasbimga va oilamga barobar mehr ko'rsatib, kam bo'lmadim. 2022-yil IIV Akademiyasining sirtqi yo'nalishini tugatdim, shu yili Shahriyorjon ham IIV Buxoro akademik litseyiga o'qishga kirdi. Hozirda yaxshi xulq-u odob bilan o'qib kelmoqda. O'qituvchilari ham undan mamnun. Shu o'quv yili davrida ingliz tili fani bo'yicha qo'shimcha to'garaklarga qatnashib, milliy sertifikatni qo'lga kiritdi. Shuningdek, badiiy kitoblarni, jumladan, detektiv va sarguzasht asarlarni sevib mutolaa qiladi. O'g'limning birdan-bir niyati IIV Akademiyasida tahsil olib, tergov sohasida faoliyat ko'rsatish.

Turmush o'rtog'imning o'qituvchi bo'lgani ham farzandlarimning baxti, deb o'ylayman. Ularning tarbiyasiga va o'qishlariga ko'proq e'tibor qaratgan. Bugungi kunda qizlarim ham faqat o'qish, bilim olish bilan cheklanmay, turli ko'rik-tanlovlarda faol qatnashib kelishmoqda. Nozatinbonu qizim «Yozgi ta'til – milliy tiklanish bilan!» insholar tanlovining respublika bosqichida sovrindor bo'ldi. Dilnura qizim esa «Kamalak yulduzlari» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida sovrinli o'rinni olib qaytdi. Kenja qizim Shukronaxon bog'chada tarbiyalanmoqda...

Qisqasi, leytenant X. Shodmonovning oilasidan ko'ngli to'q. Farzandlari qaysi kasbni tanlashmasin, niyatlariga erishadi. Chunki ularga ota-onasi barcha sharoitni muhayyo qilishgan. Yurtimizda ana shunday fidoyi, farzandlari uchun vaqt ajratib, ular bilan do'stona suhbatlashib, kasb tanlashiga o'zlari imkoniyat yaratib berayotgan ota-onalar ko'payaversin.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



KASABA UYUSHMASI FAOLIYATIDAN

XODIMLAR MANFAATI YO'LIDA

Bugungi kunda Ichki ishlar vazirligi tarkibiy bo'linmalari xodimlari birlashgan kasaba uyushma qo'mitasi tarkibida 40 ga yaqin boshlang'ich tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Ularning faoliyatini tartibga soladigan 2023–2025-yillarga mo'ljallangan Tarmoq jamoa kelishuvi va Jamoa shartnomasi imzolangan. Mehnat kodeksining 46-moddasi-



da jamoa shartnomasini imzolagan tomonlar har yili jamoa shartnomalarida belgilangan majburiyatlarning bajarilishi haqida mehnat jamoasining umumiy yig'ilishida hisobot berib borishi lozimligi ta'kidlangan.

Joriy yilning 15-mart kuni vazirlikda o'tkazilgan umumiy yig'ilish-

da tizimda xizmat qilayotgan xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy manfaatlarini himoyalash bo'yicha Ichki ishlar vazirligi ma'muriyati hamda kasaba uyushma qo'mitasining o'tgan yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobotlari tinglandi.



Shundan so'ng 2023–2025-yillarga mo'ljallangan Jamoa shartnomasining bajarilishini tekshirib boruvchi va kasaba uyushma qo'mitasining faoliyatlari bo'yicha tuzilgan dalolatnomasi bilan yig'ilish qatnashchilari tanishtirildi. Shu bilan birga, taftish komissiyasining yangi tarkibi saylandi hamda kasaba uyushmasi qo'mitasining joriy yilgi ish rejasi tasdiqlandi.

O'z muxbirimiz.

NAVRO'ZBEKLAR
KO'PAYSIN

**Safdor Navro'z
Ziyatov
1998-yil
20-mart kuni
Samarqand
viloyati
Oqdaryo
tumanidagi
Kumushkent
qishlog'ida
tug'ilgan.**

– Men baxtli otalardan biriman, – deydi iste'fodagi katta serjant Vohidjon O'ralov. – O'g'limning ismi onam Tolli momodan esdalik bo'lib qolgan. Hech yodimdan chiqmaydi: onam meni tabriklab, «Farzanding xosiyatli kunlarda tug'ildi. Bugun yil boshi, butun olam gul-u chechaklarga burkangan kunlarda farzandli bo'lding. Bobo-yu momolarimiz qadimdan Navro'z kuni tug'ilgan chaqaloqlarga o'g'il bo'lsa – Navro'z, qiz bo'lsa – Navro'zgul, deya ism qo'yishgan. Nabiramning ismini Navro'z qo'yamiz», degan edi.

O'g'lim bizdan oq fotiha olib, 2022-yil mart oyidan IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti

Metropolitenda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasining, 2-batalyon 2-otryadida xizmat qila boshladi. O'tgan yili kuzda o'zi ko'ngil qo'ygan qizga uylantirdik.

– Sevimli kasbimda xizmat qilish bilan birga, poytaxtimizning Sergeli tumanida joylashgan Toshkent ijtimoiy innovatsiya universitetining psixologiya yo'nalishi bo'yicha sirdan o'qimoqdaman. Maqsadim – kelgusida yurt osoyishtaligiga ko'proq hissa qo'shish, – deydi safdor Navro'z Ziyatov. – Fursatdan foydalanib, xalqimizni, hamkasblarimizni Navro'z bayrami bilan tabriklayman. Yurtimiz tinch va obod bo'laversin.

**Abu KENJAYEV,
o'z muxbirimiz.**

MINNATDORLIK

KASBINGIZDAN
BARAKA TOPING!

Joriy yilning 13-mart kuni ul-bul xarid qilish uchun Hozorasp tumanidagi «Universal» savdo majmuasiga keldim. Oradan biror soat o'tgach, ichida 1 million 500 ming so'm bo'lgan hamyonimni yo'qotib qo'ydim. Hafsalam pir bo'lganicha tuman IIB 5-sonli huquq-tartibot maskani navbatchisiga uchrashdim.

Shundan so'ng viloyat IIB JTSB PPX batalyoni tumanlararo 4-otryad safdor-xodimi, safdor Inomjon Hayitboyev bu yerdagi vaziyatlar markaziga integratsiya qilingan kuzatuv kameralari orqali o'rganish ishlarini olib bordi. Natijada hamyonimni savdo majmuasi hududidagi savdo shoxobchalaridan birida unutib qoldirganim ma'lum bo'ldi.

Ochig'i, murojaatim shunchalik tez va ijobiy hal bo'lishini kutmagandim. Bir necha daqiqalik o'rganishlardan so'ng hamyonimni topib berishdi. Shunday xushmuomala, kasbiga sadoqatli yurt fidoyilari borligidan juda mamnun bo'ldim. Kasbingizdan baraka toping, doimo xalqimizning hurmat-e'tiborida bo'ling!

Gulora MAMETOVA.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy tumani.



Урок духовности и просвещения

МИРЗО УЛУГБЕК – ВЕЛИКИЙ УЧЕНЫЙ И ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ДЕЯТЕЛЬ

«Каждому дорого свое прошлое. Но такой богатой истории как у нашей страны, таких великих ученых как наши предки больше нет нигде. Мы должны глубоко изучать это наследие, раскрыть его народу, миру».

Шавкат МИРЗИЁЕВ.

На одном из холмов города Самарканда находится необычное сооружение. Оно было построено более пяти веков назад – это обсерватория Улугбека, здание, которое позволило сделать прорыв в средневековой астрономии. Мухаммед Тарагай ибн Шахрух ибн Тимур Улугбек Гураган родился в 1394 году в семье Шахруха, старшего сына Тамерлана. Уже в 15 лет он стал правителем обширной территории Мавераннахр со столицей в Самарканде, но в истории стал не грозным властителем, а великим ученым. Мирзо Улугбек

наклоном 90 градусов. До изобретения телескопа такой квадрант служил инструментом для измерения высоты светил над горизонтом и для определения координаты точки, из которой проводилось измерение. Квадрант Улугбека на тот момент был самым большим в мире, а значит и самым точным. Обсерватория состояла из двух частей. Та, что была под землей, сохранилась.

Дни и ночи проводил Мирзо Улугбек в своей обсерватории. Результатом труда стал «Гурганский зидж» – звездный каталог, в нем астроном



описал 1018 звезд и разделил их на 38 созвездий.

Мирзо Улугбек смог с небывалой точностью вычислить длину звездного года – 365 дней, 6 часов, 10 минут, 8 секунд, причем погрешность составила меньше минуты. Он же определил наклон оси Земли. Уже при жизни его научные труды были известны во всем мире. О нем писали и говорили, пользовались астрономическими расчетами. Через 200 лет открытиями Улугбека занимались английские ученые. Его научные труды переводились на латинский язык.

Улугбек не только астроном, но и математик, просветитель, поэт, историк. В своем стремлении просветить народ Улугбек был очень силен. С этой целью он строил медресе – высшие учебные заведения. Были построены медресе в Бухаре, в Самарканде. Одно из

них входит в ансамбль на площади Регистан в Самарканде.

Увлечение наукой в то далекое время оказалось опасным делом. Было организовано восстание, во главе которого встал старший сын Улугбека – Абдулатиф.

Решающая битва между отцом и сыном произошла в окрестностях Самарканда. Войска Улугбека были разбиты и ему пришлось сдаться. С согласия Абдулатифа, Мирзо Улугбек отправился в Мекку, но по пути предатели схватили и обезглавили правителя. Это произошло 27 октября 1449 года.

Мирзо Улугбек остается символом просвещения и научного достижения не только для народов Центральной Азии, но и для всего мира. В истории его имя – имя великого ученого и государственного деятеля, чей вклад продолжает вдохновлять и уважать на протяжении веков.



**Гонец сообщает Амиру Темуру
весть о рождении Мирзо Улугбека**

был одним из наиболее образованных людей в мире и даже был человеком, который опережал свое время. Возможно, далеко не все, что делал Улугбек, было понято его современникам.

Когда Улугбеку было 8 лет он сопровождал своего знаменитого деда Амира Темура в походе на Малую Азию и Сирию. Однажды, в городе Мераге юный Улугбек увидел знаменитую Марагинскую обсерваторию, которая просуществовала до середины XIV века и являлась самой крупной астрономической обсерваторией своего времени. Говорят, что с тех пор Улугбек страстно увлекся астрономией.

Благодаря обширным знаниям и власти правителя, Мирзо Улугбек смог создать самый оснащенный на то время астрономический центр. Обсерватория была кругообразной формы, ее диаметр достигал 46 метров, а высота находилась на уровне десятиэтажного здания. Хотя сооружение было трехэтажным, каждый этаж был на десять метров выше. Внутри по линии меридиана Улугбек построил квадрант – большой инструмент длиной 64 метра и располагавшийся с



г. Рига (Латвия)



г. Тулуза (Франция)



SPORTNI SEV, SPORT BILAN YASHA!

Farg'ona viloyati

Italiyaning Busto Arsizio shahrida o'tkazilayotgan sportning boks turi bo'yicha «Parij-2024 Olimpiya o'yinlari»ga yo'llanma beruvchi musobaqasida O'zbekiston terma jamoasi a'zosi – Farg'ona viloyati IIB Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadi guruh ko-mandiri, leytenant Lazizbek Mullojonov – 92 kg vazn toifasida ishtirok etdi.



U birinchi jangida litvalik sportchi Darius Voisnarovichga qarshi bahs olib borib, raqibini 2 raundda nokautga uchratdi. Ikkinchi jangida Togo davlati sportchisi Kevin Kuadjovni 5:0 hisobida mag'lub etdi. Uchinchi hal qiluvchi jangida esa gruziyalik bokschi Georgi Kushitashviliga qarshi ringga ko'tarilib, 5:0 hisobida g'alaba qozonib, «Parij – 2024 Olimpiadasi»ga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Qashqadaryo viloyati



Jahongir 9 yoshdan boshlab sport bilan jiddiy shug'ullandi. Avval qo'l jangi to'garagiga qatnay boshladi. Keyinchalik murabbiysi Botir Rahmonov rahbarligida shug'ullangan Jahongir o'z vazn toifasida viloyat chempionligini 2006-yilda esa mamlakat chempionatida g'oliblik nashidasini surdi. 2011-yilning dekabr oyida Toshkent shahrida 16–17 yoshli o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan xalqaro turnirda ham 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Muntazam sport bilan shug'ullanish, o'z ustida ishlash Jahongirning qo'l jangi va MMA jang san'ati bo'yicha 15 karra chempion bo'lishiga zamin hozirladi.

Ichki ishlar organlari 2016-yilda xizmatga kirgan Jahongir Mansurov dastlabki faoliyatini Qashqadaryo viloyati IIB TVBSO mutaxassisi vazifasida boshladi. 2019-yili o'tkazilgan qo'l jangi bo'yicha musobaqa g'olibi bo'ldi, o'tgan yili esa Saudiya Arabistonida tashkil etilgan Jahon jangovar o'yinlarida MMA pankration yo'nalishida 100 kg vaznda uchinchi o'rinni egalladi.

Ayni paytda xalqaro toifadagi sport ustasi, katta serjant Jahongir Mansurov ustoz, qo'l jangi bo'yicha ikki karra jahon chempioni Botir Rahmonov murabbiyligida MMA jang san'ati bo'yicha mashg'ulotlar olib bormoqda.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri

Poytaxtimizdagi «Yunusobod» sport majmuasida voleybol bo'yicha Toshkent shahar IIBB boshlig'i kubogi musobaqasining final o'yini bo'lib o'tdi.



bir vakili, shu jumladan, jamoa sardori bo'lgan mahalla profilaktika inspektori va yoshlar yetakchisi pul mukofotlari, medal va diplom bilan taqdirlandi. Shuningdek, «Eng faol himoyachi», «Eng faol hujumchi», «Eng faol sportchi», «Eng yaxshi hakam» nominatsiyalari bo'yicha ham g'oliblar aniqlanib, diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

O'z muxbirimiz.

Shiddatli va murosasiz ruhda o'tgan o'g'il bolalar o'rtasidagi bahslarda Yangihayot tumani «Fayzli» mahallasi jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi. Qizlar o'rtasidagi musobaqalarda esa Sergeli tumani «Yangi Sergeli» mahallasi jamoasiga teng keladigan raqib topilmadi.

G'olib va sovrindor bo'lgan jamoalarning har



ИШЧИ ГУРУХҲ ФАОЛИЯТИДАН

ЎРГАНИШЛАР, ТАВСИЯЛАР ВА ГАЛДАГИ ВАЗИФАЛАР

Давлат раҳбарининг мамлакатимиз ҳудудларида криминоген вазиятни барқарорлаштириш, маҳаллаларда хавфсиз муҳитни яратиш ҳамда ёшлар билан ижтимоий-ҳуқуқий ишлашга қаратилган топшириқлари ижросини таъминлаш мақсадида Ички ишлар вазири, генерал-лейтенант Пўлат Бобожонов бошчилигидаги ишчи гуруҳи Сирдарё ҳамда Жиззах вилоятларининг барча шаҳар ва туманларида ўрганиш ишлари амалга оширди.

СИРДАРЁ ВИЛОЯТИдаги ўрганишлар аввалида Ички ишлар вазири кўзи ожиз ва заиф кўрувчи болалар учун ихтисослаштирилган «Нурли маскан» мактаб-интернатида бўлди. Бу ерда яратилган шароитларни кўздан кечириш давомида болалар кутубхонаси учун махсус дарсликлар харид қилиш, ўқув қўлланмалари, бадий китоблар билан бойитиш, ижодий ишлар учун зарур шароит яратиш бўйича вазифалар қўйилди. Ўқувчиларнинг математика, санъат ва спортга доир иқтидорларини юзага чиқариш борасидаги ишларга эътибор қаратиш кераклиги таъкидланди.

Ишчи гуруҳ иштирокида Гулистон шаҳри «Аҳиллик» маҳалласида жойлашган Вояга етмаганларга ижтимоий-ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш маркази биносининг очилиш маросими ўтказилди. Мазкур марказ 0,6 гектар ҳудудда жойлашган бўлиб, 26 нафар тарбияланувчига мўлжалланган.

Тантанали тadbирда ёшлар тарбиясига эътибор қаратиш, жиноятга мойил вояга етмаганлар билан «ижтимоий профилактика» тамойили



учрашув ўтказилди. Унда асосий эътибор ёшлар бандлигини таъминлаш, уларнинг эҳтиёжидан келиб чиқиб, зарурий анжомларни харид қилишга кўмаклашиш, тadbиркорлик фаолиятини йўлга қўйиш орқали ижтимоий мослашувини таъминлаш масалаларига қаратилди.

ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИдаги ўрганишлар давомида таълим муассасаларида ёшлар билим олиши ва касб-ҳунар эгаллаши учун яратилган шароитлар кўздан кечирилди. Жумладан, Мирзачўл туманининг «Дўстлик» маҳалласида жойлашган 1-сонли ўрта умумтаълим мактабидаги ахборот технологиялари, ҳунармандчилик, йўл ҳаракати хавфсизлиги тўғрақлари иши ўрганилди.

Шунингдек, «Жиззах» махсус иқтисодий зонасида жойлашган, йилга 25 мингта автомашина тайёрланаётган «ADM JIZZAKH», Фориш туманидаги 27 турда қурилиш маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи «Mega invest industrial» корхоналарида фойдаланилаётган технологиялар билан танишилди. Маҳаллаларда эса «еттилик» фаолияти таҳлил қилинди. Бу жараёнда аҳолининг ижтимоий-иқтисодий муаммоларини ҳал қилиш ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш масалаларига эътибор қаратилди.

Худди шундай, 1132 та хонадонга эга 16 та кўп қаватли тураржой барпо қилинаётган Шароф Рашидов тумани «Оқтош ота» маҳалласидаги «Янги Ўзбекистон» массиви ҳамда «Куёвбоши» маҳалласида ички ишлар органлари ходимлари учун бунёд этилаётган 104 та уйнинг қурилиши ўрганилди.

Криминоген вазиятни яхшилаш мақсадида янги услубларнинг жорий қилингани натижасида Жиззах шаҳри, Шароф Рашидов, Арнасой, Бахмал, Галлаорол, Дўстлик Зарбдор, Зафаробод туманларидаги бир қатор маҳаллаларда жиноятчиликни кескин камайтиришга эришилгани ишчи гуруҳ томонидан эътироф этилди.

Ўрганишлар давомида Ички ишлар вазири ўринбосарлари соҳавий хизматлар кесимида фаолият самарадорлиги, хизмат интизоми ва қонунийликни мустаҳкамлаш масалаларини ҳам кўриб чиқдилар. Шу билан бирга, ҳамкорликда тезкор-профилактик тadbирлар ташкил қилинди. Пировардида, 64 та жиноий ҳолат аниқланди, 4 та жиноят фош этилди, қидирувдаги 14 нафар шахс ушланди. Йўللarda ўтказилган рейдлар давомида эса қондабузарлик содир этган 1890 нафар шахсга нисбатан маъмурий баённомалар расмийлаштирилди.

Ўрганиш натижалари Ички ишлар вазири, генерал-лейтенант Пўлат Бобожонов раислигида вазирликнинг соҳавий хизмат раҳбарлари, вилоят ИИБ масъуллари, шаҳар ва туман ИИБ раҳбарлари ҳамда профилактика инспекторлари иштирокида ўтган видеоселектор йиғилишида муҳокама қилинди. Унда маҳаллаларда содир этилаётган маиший турдаги жиноятлар сони 28 фоизга, тан жароҳати етказиш билан боғлиқ жиноятлар 70 фоизга, «қизил тоифа»даги маҳаллалар сонини 43 фоизга камайтиришга эришилгани билдирилди.

Шунингдек, вилоятда ўтган йилнинг ҳисобот даврида жиноятчиликка қарши курашиш, жамоат хавфсизлиги концепциясида белгиланган вазифаларнинг ижроси, ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш, хизмат интизоми ва қонунийликка риоя этилиши борасидаги ишлар танқидий кўриб чиқилиб, аниқланган муаммоларни бартараф этиш юзасидан аниқ вазифалар белгиланди.

**Абдурахмон МУСТАФОҚУЛОВ,
Алижон АБДУСАТТОРОВ,**
ўз мухбирларимиз.



асосида ишлаш, ҳар бири билан алоҳида шуғулланиш масалалари муҳокама қилинди.

Криминоген шароитни яхшилашга қаратилган саъй-ҳаракатлар натижасида «яшил ҳудуд» тоифасига ўтказилган Гулистон шаҳри «Тараққиёт» маҳалласидаги 5-сонли ҳуқуқ-тартибот маскани ҳамда «Боғишамол» маҳалла фуқаролар йиғинида ҳам ўрганишлар ўтказилди. Масъул раҳбарларга аҳолининг ижтимоий-маиший муаммоларини ҳал этиш, криминоген вазиятни барқарорлаштириш, жамоат тартибини сақлаш ва фуқаролар хавфсизлигини таъминлаш бўйича ушбу ҳудудларнинг ижобий тажрибасини бошқа маҳаллаларда ҳам кенг қўллаш ҳақида тегишли топшириқлар берилди.

Гулистон тумани «Зарбдор» маҳалласида жойлашган «Ёшлар маркази»да вилоят ёшлари билан

Ўрганишлар давомида ишчи гуруҳ асосан ёшлар меҳнат қилаётган Сайхунбод туманидаги «Сайхунбод фаровон томорқа хизмати» МЧЖга қарашли иссиқхона, «ООО Автодрайвер стади» МЧЖ фаолияти билан ҳам яқиндан танишди.

Навбатдаги манзил Ховос тумани ИИБ бўлди. Бу ерда ватанпарварлик бурчаги, навбатчилик қисми, тезкор-тергов гуруҳи фаолияти билан танишилиб, туман ИИБ бошлиғининг жиноятчиликка қарши курашиш борасида амалга оширилган ишлари ҳақидаги маърузаси тингланди. Шунингдек, «Оқчангал» маҳалласи профилактика инспектори фаолияти, «ижтимоий профилактика» тартиби бўйича суҳбатлашилди. Маҳалла «еттилиги» фаолиятини кучайтириш юзасидан тегишли таклиф ва тавсиялар берилди.



«ПАТРИОТИЗМ – МОЯ ВЫСШАЯ ЦЕЛЬ!»

Под таким девизом в комплексе Жалолиддина Мангуберди города Ургенча состоялся военно-патриотический фестиваль.

В мероприятии, организованном областным хокимиятом, организацией содействия обороне «Ватанпарвар», УВД, Агентством по делам молодежи, и другими заинтересованными организациями и учреждениями, участвовали спортсмены, учащиеся лицеев, известные



поэты и писатели, актеры областного театра музыкальной драмы, военный оркестр и эстрадные исполнители.

Были показаны сценические и театрализованные представления, воссоздающие образы исторических полководцев, прочитаны стихи, монологи, исполнены

песни, воспевающие Родину, прославляющие патриотизм и мужество. Состоялись показательные выступления членов спортивных секций ОСО «Ватанпарвар».

Худойберган ЖАББОРОВ,
соб. корр.

Хорезмская область.

ЛИКИ НАВРУЗА

В Центральном аппарате МВД Республики Узбекистан проведен праздник Навруз под девизом «С тобой, Навруз, мир светом озарится!». Мероприятие прошло под мотивы национальных песен и музыки, радость, танцы и смех участников.



Мы против коррупции!

Солгавший один раз вынужден сочинять вторую небылицу, чтобы скрыть свою ложь. Точно также попытка утаить одно противоправное действие порождает второе. Подобный случай произошел недавно в Турткульском районе.



Гражданин К. Л. в поисках легких денег нажил большие неприятности. По факту сводничества районный отдел внутренних дел возбудил уголовное дело. Мужчина решил во что бы то ни стало выкрутиться из ситуации.

Он позвонил инспектору профилактики капитану Г. Муратову. Позже, при встрече, К. Л. просил замять дело не доводя до суда. Инспектор разъяснил, что это противозаконно. Спустя день нарушитель свою просьбу подкрепил обещанием дать взят-

ку в размере одного миллиона сумов. Капитан строго следовал букве закона, но проситель не унимался. Тогда капитан Г. Муратов обратился с рапортом на имя руководства.

Было проведено оперативное мероприятие, в ходе которого К. Л. был задержан в момент дачи взятки.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.

Республика
Каракалпакстан.



БАРҲАЁТ НАВОЛАР

НОМИ ҲАМ, ЎЗИ ҲАМ ЧИРОЙЛИ...

Шундай қўшиқлар борки, шеър ва мусиқа уйғунлашган, гўёки бир-бири учун яратилгандек таассурот уйғотади одамда. Бундай ижод намуналари халқ қалбидан чуқур жой олиб, йиллар давомида бадий қийматини йўқотмай яшаб келаверади. Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон халқ артисти, «Дўстлик», «Эл-юрт ҳурмати», «Меҳнат шуҳрати» орденлари соҳиби Ғуломжон Ёқубов томонидан 1980 йилда куйланган «Чиройли» қўшиғи ҳам орадан қирқ йилдан ортиқ вақт ўтса-да, ҳамон севиб тингланади. Дарвоқе, ушбу ўлмас тарона ўз вақтида 15 йил давомида республика Ички ишлар вазирлиги сифатида фаолият юритган марҳум Ҳайдар Яҳёев қаламига мансуб ғазал асосида дунёга келган.



* * *

Ўзбек гўзалин икки ҳилол ёси чиройли,
Ораста табассум ила шахлоси чиройли.

Қомат ва латофатда гўзал охуга монанд,
Одобу ҳаё соҳиби — барноси чиройли.

Гулгун юзида ёнди қуёш, бахти — қуёши,
Олтин қўли гул, пахтаси — тиллоси чиройли.

Ишқ ичра садоқатли, вафо бобида танҳо,
Қалбида ажиб истаги — дунёси чиройли.

Халқим қизи бў — эл кўзининг меҳригиёси,
Халқим каби хушқомату сиймоси чиройли.

Яҳё куйига бергучи илҳому тароват —
Ширинсухану байт ила имлоси чиройли.

Туман ИИБда

МИРЗАОБОДДА ТОНГЛАР НУРЛИ

Мирзаобод тумани ИИБ томонидан жиноятчиликни жилаш, ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш, маҳаллаларда хавфсиз муҳитни ҳамда аҳоли осойишталигини таъминлаш борасида тегишли чора-тадбирлар амалга ошириб келинмоқда.

— Ўтган йили туманда бир қанча турдаги жиноятлар камайди, — дейди туман ИИБ бошлиғи, подполковник Акмал Холматов. — Бунда «маҳаллабай» ишлаш тизими муҳим ўрин тутди. Масалан, «Йўлдош-обод» маҳалласи нисбатан чет ҳудуд ҳисобланади. Йиллар давомида ичимлик суви таъминоти, бандлик каби йўналишларда муаммолар йиғилиб қолганди. «Маҳаллабай» ишлаш орқали уларнинг ечими топилди. Ўн километр наридан сув тармоғи тортиб келинди. 11 нафар йи-

налари, тикув машиналари олиб берилди. Натижада улар ўзларининг кичик бизнесини йўлга қўйишди. Туманда ёшлар ўртасида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Таълим муассасаларида, уюлмаган ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш, ҳуқуқий билим ва маънавий дунёқарашини юксалтириш устувор вазифа сифатида белгилаб олинган. Баҳорнинг илк кунларида туман ИИБ ташаббуси билан ёшлар учун «Очиқ эшиклар куни» тадбирининг ўтка-



гит-қизлар жиноятчиликка қарши курашиш сир-асрорлари, тергов-тезкор гуруҳи фаолияти, эксперт-криминалист вазифалари билан танишишди.

Турғун Аҳмедов номли маҳаллада ёшлар ўртасида мини футбол мусобақаси ташкил этилди. 20-умумтаълим мактабида эса «Заковат» интеллектуал ўйини ўтказилди. Бу каби тадбирлар ёшларда катта қизиқиш уйғотди.

Пробация назоратидаги шахсларнинг бандлигини таъминлаш, улар томонидан қайта жиноят содир этилишининг олдини олиш масаласи ҳам диққат марказида. Туманда 200 нафарга яқин шахс пробация назоратида туради. Уларни иш билан таъминлашга масъулият



билан қаралади. Пробация хизмати томонидан ўтказиб келинадиган меҳнат ярмаркалари бу борада ўз самарасини беряпти. Ўтган йили ўтказилган олти меҳнат ярмаркасида 50 га яқин шахс иш билан таъминланди. Жорий йилда

эса 7 нафар шахс ишга жойлаштирилиб, ўндан ортиғи касбга тайёрлов курсларига йўналтирилди.

**Абдурахмон
МУСТАФОҚУЛОВ,
ўз мухбиримиз.**

Сирдарё вилояти.



гит-қизга субсидия асосида мотокультиватор, электр пайвандлаш уску-

зилгани бунинг далилидир. Таълим муассасаларидан туман ИИБга келган йи-



HAR KO'NGILDA YAXSHILIK UNSIN

Ota-onam doim 1967-yil qish qattiq kelgan, deyishardi. Men shu yili qahraton chekinib, kunlar isib, gullar ochilgan pallada tug'ilgan ekanman. Shuning uchun avval ismimni Chamangul qo'yishgan, keyin esa Gulbahorga almashtirishgan.

Uzoq yillar ichki ishlar organlarida faoliyat yuritgan faxriy xodima iste'fodagi podpolkovnik Gulbahor Amerdinova ismi bilan bog'liq xotiralarni shunday yodga oladi.

Lavhamiz qahramoni dastlab Farg'ona viloyati IIB Harbiy-tibbiy komissiyasida kotiba bo'lib ishlagan. Biroq uning yuragida ichki ishlar organlarida xizmat qilishdek ishtiyoq bor edi. Inson niyatni yaxshi qilib, mehnatdan bo'yin tovlamay, tanlagan yo'lida davom etsa, imkoniyat eshiklari bir-bir ochilaverarkan. Unda ham xuddi shunday bo'ldi. Yosh bo'lishiga qaramay, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni, berilgan topshiriqlarni astoydil, puxta bajarishi sabab tezda rahbariyat e'tiboriga tushib, Farg'ona shahar IIB voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha inspeksiya bo'limi inspektori lavozimiga o'tkazildi.

– Orzularim ushalgan kundagi hayajonlarimni kechagidek eslayman, – deydi qahramonimiz. – Xizmatimning birinchi kuniyoq xalqning nigohida ekanligimni unutmasligim, libosimga munosib xodima bo'lish uchun g'ayrat bilan ishlashim shart, degan ahdni qalbimga joyladim. Faoliyatim mobaynida qaysi yo'nalishda xizmat qilmay, maqsadim yo'lida og'ishmay mehnat qildim. Sohaning sir-asrorlarini birinchi ustozim, iste'fodagi general-ma-

yor Tohir Mullajonovdan o'rganganman. Ularning «Shunday shaxt-shijoat bilan ishlaginki, omad ortingdan quvsin», deya bergan nasihatlar kechagidek qulog'im ostida jaranglab turadi. Voyaga yetmaganlar bo'limidagi faoliyatim mobaynida iste'fodagi podpolkovnik Sotvoldi Haydarovning yo'l-yo'riq va ko'rsatmalariga amal qilib kam bo'lmadim. Ustozlarim menga tizimning ichiga kirish, tinimsiz mahoratni oshirib borish alohida ahamiyat kasb etishini uqtirishdi. Va bu mening barcha yutuqlarim uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Gulbahor Amerdinova Farg'onadan IIV SHTBIX shaxsiy tarkibni tarbiyalash va ijtimoiy-huquqiy himoya qilish bo'limiga inspektor lavozimiga o'tkazilganida ham, har bir topshiriqni o'z o'rnida bajarishi, yuzakilikni yoqtirmasligi, g'ayratligi, jamoani birlashtirish qobiliyati bilan tezda kasbdoshlari mehri va e'tiborini qozondi. Keyinchalik faoliyatini IIV Shaxsiy tarkib bilan ishlash xizmatida davom ettirdi.

U 2018-yilda IIV Akademiyasi qizlar otryadi komandiri lavozimidan podpolkovnik unvonida pensiyaga chiqdi. Hozirda esa Toshkent shahar Xalq qabulxonasi mutaxassisidir.

– Biz hayotda uncha-muncha muammoni ostonamizdan tashqa-



riga olib chiqishga istihola qilamiz, – deydi iste'fodagi podpolkovnik G. Amerdinova. – Ammo turmushning mushti ko'pki, ba'zan kishi kutilmagan sinovlar qarshisida ilojisiz qolib, qaysidir davlat idorasining eshigini qoqadi. Turli masalalar bilan idoramizga murojaat qilayotganlarning muammolarini eshitish, vaziyatga to'g'ri baho berib, yechimini topish oson ish emas. Xalq qabulxonasiga umid bilan qadam qo'ygan har bir fuqaroning muammosini hal etish uchun bor imkoniyatimizni ishga solamiz.

G. Amerdinova hayotda insonlar hamisha bir-biriga yaxshilik qilib, ezgulikka intilishi kerak, degan shior bilan yashaydi. Unga bu shior ro'yobi yo'lida omil bo'lgan bag'rikenglik, mulohazakorlik xislatlari onasi May-

ram ayadan yuqqan. Qaynonasi Hojar ayaning insoniy fazilatlari ham bu boradagi qarashlarining yanada tiniqlashishiga sabab bo'lgan.

Darvoqe, qahramonimizning ukasi, IIV Maxsus operatsiyalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi Farg'ona viloyati bo'yicha maxsus otryad komandiri, II darajali «Shon-sharaf» ordeni sohibi, podpolkovnik Ravshan Amerdinov ham 32 yildan buyon ichki ishlar organlari tizimida fido-yilik bilan xizmat olib bormoqda. Opa-uka hamisha maslakdosh.

Xayrli ishlarda jonsarak va xalqparvar faxriy xodima uch farzandning onasi. To'ng'ich qizi Shahzoda huquqshunos. U yaqinda Koreyada xalqaro qonunlar bo'yicha tarjimon mutaxassisligi yo'nalishida tahsilni yakunlab, magistrlik darajasini olib qaytdi. Shahnoza jurnalist, Nigina esa kelajakda jarroh bo'lish niyatida tibbiyot oliygohiga tayyorgarlik ko'rmoqda. Gulbahor opa Muhammadloyiq, Anisaxonlarning shirin kulgulari, bolalarcha erkliklaridan zavqi toshib, ularni suyb erkalovchi buvi hamdir.

Sirasini aytganda, Gulbahor Amerdinova singari el ishiga yelka tutgan, ko'nglida yaxshilik ungan xotin-qizlarning ibratli va samarali faoliyatiga chuqurroq nazar solganimiz sayin o'rnak olsa arziydigan sifatleri yorqinlashaveradi.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

ADABIY-MA'RIFIY KECHA

VATANDAN MUQADDAS JOY YO'Q



Yurtimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu boradagi ta'lim-tarbiyaviy ishlarga mamlakatimiz fuqarolarini, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari yanada faol jalb etilmoqda. Yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg'ularini singdirish maqsadida turli uchrashuvlar, konsert dasturlari hamda adabiyot, madaniyat sohasi vakillari bilan qiziqarli tadbirlar o'tkazilmoqda. Poytaxtimizdagi «Turkiston» san'at saroyida bo'lib o'tgan «Vatan manzumasi» nomli adabiy-ma'rifiy kecha fikrimiz tasdig'idir.

Mudofaa, Madaniyat vazirliklari, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Kinematografiya agentligi va boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda tashkillashtirilgan tadbir davlatimiz madhiyasi yangragach, O'zbekiston xalq artistlari – Erkin Komilov va Saidkomil Umarovlar hamrohligida navbat sahna ko'rinishlari, musiqiy chiqishlarga ulanib ketdi. Ichki ishlar, Mudofaa vazirliklari, Milliy gvardiya harbiy ansamblarining Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlari tomoshabinlar ko'nglini shod etdi.

Adabiy-ma'rifiy kechada yurt tinchligi va osoyishtaligi yo'lida jon fido qilgan asl o'g'lonlar

xotirlandi. Afsuski, ular olamdan o'tganda ko'pchiligining farzandlari go'dak bo'lishgan.

Oradan yillar o'tgach, otalari ardoqlagan kasbni faxr bilan davom ettirayotgan yosh kadrlarning ta'sirchan chiqishlari qalblarni hayajonga soldi. Bir qator yangi to'plamlar, she'riy kitoblar haqida ham alohida to'xtalib o'tildi. Bundan tashqari, muhtasham saroyning ko'rgazmalar burchagida vatanparvarlikni o'zida mujassam etgan portretlar, ijodiy ishlar, ko'rgazmali qurollar mehmonlarda katta qiziqish uyg'otdi.

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.



Наши корреспонденты сообщают



Джизакская область

Ведется последовательная работа по социальной защите сотрудников органов внутренних дел.

В частности, в махалле Куёв-боши Шараф-Рашидовского района построен жилой массив из 56 трехкомнатных коттеджей площадью 6 соток. Для обеспечения новоселов чистой питьевой водой вырыт артезианский колодец глубиной 210 метров. В настоящее время сооружается цистерна для хранения воды, емкостью 100 тонн, прокладываются линии электропередач и природного газа.

В нынешнем году на массиве будет возведено еще 48 коттеджей. На следующем этапе планируется возвести 36 трехкомнатных домов по 4 сотки. Параллельно намечено построить дошкольное образовательное учреждение на

150 мест, гостиницу, объекты торговли и бытового обслуживания.

– Новоселы получают ключи от 104 коттеджей, – говорит старший



инспектор группы социального обеспечения службы по духовно-просветительской работе и кадровому обеспечению областного УВД капитан Музаффар Абдурашидов. – Для 34 нуждающихся в жилье сотрудников запланировано передать дома на льготных условиях. Наряду с этим в текущем году 12 сотрудникам оказана материальная помощь для проведения свадебных торжеств, 25 детей работников сферы устроены в дошкольные образовательные учреждения.

В числе мер социальной защиты – льготы при покупке автомашины, содействие в проведении ремонта жилья, лечении, предоставлении права бесплатной приватизации

служебных квартир тем, кто проработал в органах внутренних дел не менее 20 лет, оказание поддержки членам семей сотрудников, погибших при исполнении служебного долга и другое.

За минувший период года родным трех сотрудников, погибших при исполнении служебных обязанностей выделено 18,5 миллиона сумов. Близким еще четырех покойных сотрудников оказано содействие в лечении, доставлены продуктовые пакеты для семей еще 14 сотрудников, отдавших жизни ради обеспечения общественной безопасности. По инициативе областного УВД отремонтирован дом безвременно ушедшего из жизни старшего лейтенанта Бекзода Яллабоева в махалле Олмазор Пахтакорского района, где проживает его мать Нурхон Яллабоева.

Бухарская область


Деятельность каждого сотрудника органов внутренних дел, независимо от занимаемой должности, оценивается его вкладом в обеспечение общественной безопасности, преданности выбранной профессии.

Инспектор группы пробации СОБ Ромитанского РОВД старший лейтенант Азамат Акрамов, окончив университет общественной безопасности Национальной гвардии, некоторое время служил в Академии МВД командиром отряда, после старшим инспектором группы пробации Гиждуванского РОВД. С марта 2023 года несет службу на нынешней должности.

Старший лейтенант А. Акрамов пользуется также уважением и доверием лиц, находящихся под надзором группы пробации. Инспектор старается по-

мочь им встать на правильный путь, найти место в жизни.

– Азамат постоянно работает над повышением мастерства. В минувшем году не допустил совершения преступлений лицами, состоящими на учете в группе пробации, – говорит начальник отдела пробации СОБ областного УВД майор Бахтиёр Худойбердиев. – По линии социальной адаптации обеспечил своим подопечным обучение профессиям. Трудоустроил людей, отбывающих наказание в виде исправительных работ.



KO'NGILGA TASHRIF

KO'KLAMDA TUG'ILGAN QIZ



Bahor go'zallik va yasharish fasli. Mutaxassislarning aytishicha, ushbu faslda tug'ilgan insonlar tabiatan juda iste'dodli, xotiralari esa mustahkam bo'ladi. Ha, aytgancha, ularni jo'shqinlik, xushchaqchqlik, jaydarilik fazilatlari ham bezab turarkan. Ushbu xislatlarning egasi, o'zbek kino san'atida o'z o'rnini topayotgan yosh va iqtidorli aktrisa Bahora ARSLONOVA – e'tibor markazimizda.

– **Avvalambor, kirib kelayotgan Navro'z ayyomi bilan qutlayman. Endi esa ismingiz haqida gaplashsak...**

– Bahora fors-tojikcha so'z bo'lib, ko'klamda, bahorda tug'ilgan qiz yoki bahordek go'zal, chiroyli, ko'rkam, fayzli, degan ma'nolarni bildiradi. Mening asl ismim Gulbahor. 1993-yil 1-mayda Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida tug'ilganman. Ismimni rahmatli otam qo'ygan. Respublika Estrada-sirk kollejida tahsil olgan paytlarimda do'stlarim qisqaroq qilib, Bahora deb atay boshlashgan. Shu bilan xalqimizga Bahora bo'lib tanilganman.

– **Aslida qaysi faslni yoqtirasiz?**

– Qish fasli yoqadi. Lekin har bir faslning o'z tarovati bor.

– **Adashmasam, ilk bor «Fidoyilar» nomli serialda rol ijro etgansiz. Qaysi yaratgan obrazingizdan ko'nglingiz to'ladi?**

– To'g'ri, shundan so'ng «Zurriyod», «Sadoqat», «Isnod», «Artist» va «Jonim azobda» deb nomlangan bir qator kinofilmlar va seriallarda suratga tusha boshladim. «Dugonalar» televidizion shousida ishtirok etdim. Bugungi kunda xususiy qo'g'irchoq teatrida ham faoliyat yuritaman. Qisqasi, har bir obrazim uchun qattiq mehnat qilaman va maroq bilan ijro etaman. Har biri men uchun qadrlil. Tanlangan obrazimga oid insonlarni ko'proq kuzataman. Yurakdan ifoda etishga urinaman.

– **Ustozlaringiz haqida...**

– Ustozlarimning barchasiga o'z minnatdorigimni bildirib qolaman. Maktabda Oydin opa Nazarova dagan ustozim bo'lgan. Kollejda tahsil olayotganimda

O'zbekiston davlat satira teatrining oliy toifali drama artisti Amina Ibatulina, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining «Qo'g'irchoq aktyorligi» yo'nalishida Shomurod Yusupovlardan aktyorlik mahoratini o'zlashtirdim. O'zimni baxtli hisoblayman. Chunki, ne-ne ulug' san'atkorlar qo'lida tarbiya oldim. Rahmatli kinorejissyor Shuhrat Abbosov ham bizga dars bergan. Kinodagi ustozlarim – O'zbekiston xalq artisti Gulchehra Jamilova, Lola Eltoeva, Muhammad Iso Abdulxairov. Ular menga san'at sir-asrorlarini sidqidildan o'rgatishmoqda. Nafaqat ishda, ijodda, balki hayotdan saboq berishadi.

– **Oilangiz, farzandlaringiz haqida ham qisqacha to'xtalsangiz...**

– 2018-yil 17-oktabrda Sherali Boboqulov bilan oila qurdim. Turmush o'rtog'im turizm va iqtisod sohalari bo'yicha o'qigan. Aralash sport turi bo'yicha ko'plab yutuqlarga erishgan. 2 nafar farzandimiz bor. Qizim Validaxon 3 yosh, o'g'lim Xolidbek bir yarim yosh.

– **Xalqimizga va ichki ishlar organlari xodimlariga bayram tilaklaringiz...**

– Tinch va osoyishta yurtga bola kulgusi yarasadi, ota-ona qalbi farzand kamolidan quvonchga to'ladi. Zero, tinchlik bor joyda rivojlanish bo'ladi. Mana shunday farovon kunlarimiz, osuda hayot kechirishimizda ichki ishlar organlari xodimlarining munosib hissalarini bor. Xalq xizmatida hech qachon tolmasinlar! Bayram barchamizga muborak bo'lsin!

– **Mazmunli suhbat uchun tashakkur.**

Madina QAHHOROVA suhbatlashdi.



Navro'z RIZAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati,
«Do'stlik» ordeni va
«Shuhrat» medali sohibi.

MEHR AYYOMI

Bugun butun borliqda ajib bir mo'jizalar ro'y berayotir. Qish rutubatlari chekinib, yurt uzra bahor nasimlari esa boshladi. Quyosh taqvimiga ko'ra, beqaror hut o'rnini hamal egalladi. Zaminimizga xuddi xalqimiz singari saxovatli va ijodkor ezgu ayyom – Navro'zi olam tashrif buyurib, bizni sarafroz ayladi.

Ko'klamda o'ziga xos evrilishlar va yangilanishlar yuz beradi. Bahoriy nasimlar insonlarga o'zgacha kayfiyat baxsh etib, uni ezgulik va mehribonlikka chorlaydi. Men xuddi shu oyda dunyoga kelganimdan iftixor tuyaman. Tabiatimda odamlarga izzat-ikrom ila munosabatda bo'lish, hammaga yaxshilik qilish, imkon boricha, ularning qalbiga yo'l topish odati bor. Bu ham Navro'zi olamning amallari bilan uyg'undir.

Otam Ibodulla bobo til va adabiyot o'qituvchisi (1945-1946-yillarda, o'smir bola payti maktabda o'qish bilan birga kichik sinf bolalariga dars ham bergan) bo'lgan. Navro'z ayyomi, uning unutilmas qadriyatlarimizdan ekanini chuqur anglagan ziyoli edi. Shu bois otam ismimni Navro'z qo'ygan.

Navro'zi olam hammaga yaxshilik ulashganidek, men ham, iloji boricha, yurtdoshlarim qalbiga quvonch bag'ishlash, ezgu niyatlarga erishishlariga ko'maklashish yo'lida hamon izlanaman.

Darvoqe, bu ayyomda qadr-qimmat, insonlar o'rtasida oqibat va hamjihatilik tuyg'ulari o'zgacha tus oladi. Men mamlakatimiz aholisini, shu jumladan, ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan fidoyi xodimlar va ularning oila a'zolarini ham Navro'zi olam bilan chin ko'ngildan muborakbod etaman! Barchangiz mehr-oqibat ila umrguzaronlik qilishingizni istayman.

Hazrat Alisher Navoiy bobomiz «Ulus chehrai olam afro'zidin, Bilur yil kelurini Navro'zidin», deganlaridek, bu yilgi Navro'zi olam hammamiz uchun omadli kelib, yurtimizdan tinchlik-osoyishtalik, fayz-u baraka hech qachon arimasin! Bayramingiz qutlug' bo'lsin!

KECHA

Jizzax viloyati IIB Navbatchilik qismi

BUGUN


www.postda.uz

t.me/postdarasmiy

www.facebook.com/postdauz

www.instagram.com/postda_uz

BAYRAM SHUKUHI

OLAM NURGA TO'LDI
SEN BILAN, NAVRO'Z!

Navro'z – mehr-muhabbatni, qadriyatlar va boqiy an'analarni o'zida mujassam etgan, fasllar kelinchagi bahorning eng orziqib kutiladigan umumxalq bayrami.

Yurtimizda kezib yurgan ayyom shukuhi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligida ham shodiyonalar bilan davom etdi. Erta tongdan vazirlik hovlisida doshqozonda sumalak tayyorlash ishlari boshlab yuborildi. Xodimalar tomonidan tayyorlangan ko'k somsa, chuchvara, qatlama va boshqa bahoriy taomlar dasturxonga ko'rk bag'ishladi.



SURXONDARYO VILOYATI



Surxon vohasi markazi bo'lmish Ter-miz shahridagi San'at saroyi atrofida maydonga qadim an'analarni eslatuvchi o'tovlar tikilib, gul-chechaklar,

esa kishi ko'zini quvnatdi. Bayram shodiyonalari laparlar-u polvonlar ku-rashiga ulanib ketdi.

SAMARQAND VILOYATI

ViLOYAT IIB hovlisida xodimalar tomonidan bayram dasturxoni bezatilib, sumalak doshqozonga solindi. Barcha sohaviy xizmatlar va tarkibiy tuzilmalarda xizmat qilayotgan xotin-qizlar bayram tadbiriga milliy liboslarni namoyish qilib, ko'klamni olqishlovchi laparlar aytib bayramga fayz kiritdi.



QO'SHQANOTLAR

Oila – baxt qo'rg'oni.
Bu qo'rg'onning mustahkamligi er-u xotinning ahilligi, hamjihatligiga chambarchas bog'liq. Farg'ona viloyati IIBda xizmat qilayotgan mayor Ahrorbek Ahmedov katta serjant Shahnoza Ahmedova ham o'zaro hamjihatlikda ana shunday baxt qo'rg'onini bunyod etishgan.

Lavhamiz qahramonlari Farg'ona shahrida tug'ilib, kamolga yetgan. Baxtni qarangki, ikkovi ham bolalikdan ichki ishlar organlari tizimiga havas qilib ulg'aydi. Ahrorbek IIV Akademiyasida o'qib, tezkor xizmatlarda faoliyat boshlagan bo'lsa, Shahnoza dastlab yong'in xavfsizligi xizmatida, keyinchalik Farg'ona shahar IIOFMBda faoliyat yuritdi.

Taqdir ularni shu kasb orqali uchrastirdi. Garchi ikki xil sohaviy xizmatda faoliyat ko'rsatishgan bo'lsa-da, ish jarayonida, turli tadbirlarda bir-birini ko'rar va muloqot qilib turishardi. Keyinchalik o'rtada mustahkam ishonch



BAXT SIRI

va muhabbat paydo bo'lgach, 2018-yilda oila qurishdi.

Bugun Ahmedovlar oilasiga ko'pchilik havas qiladi. Ularning 2 nafar farzandi bor. Islomjon va Muhammadjon hozirdanoq ota-onasi kabi osoyishtalik posboni bo'lishni maqsad qilib kamolga yetmoqda.

– Oilaviy baxtning asosiy siri er-xotin o'rtasidagi o'zaro ishonch va hamjihatlikda, – deydi katta serjant Shahnozaxon Ahmedova. – Biz ham ana shu jihatga alohida e'tibor qaratamiz. Ikkovimiz bir tizimda faoliyat yuritayotganimiz uchun xizmat jarayonidagi topshiriqlar va rahbariyatning talabini yaxshi tushunamiz. Shu bois bir-birimizni qo'llab-quvvatlagan holda, oilani ham, xizmat vazifamizni ham birdek bekam-ko'st bajarishga harakat qilyapmiz.

Darvoqe, oila bekasi Sh.Ahmedova ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida o'tkaziladigan ko'rik-tanlovlar, sport musobaqalari va konferensiyalarda faol qatnashib keladi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

2024-YIL – YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

YAXSHILAR KO'MAGIDA

Taqdir sinovlariga duch kelgan insonlar haqida ko'p eshitganmiz. Hayotda yashashni katta baxt sanab, oldinga intilayotgan va natijada katta muvaffaqiyatlarga erishayotgan yurtdoshlarimiz orasida Uchqo'rg'on tumani 3-sektori hududidagi «Dehqonobod» mahallasida istiqomat qiluvchi Muharramxon Abdurahimova ham bor.

Muharramxon opa Chust tumanida tug'ilgan bo'lib, 1994-yilda Kosonsoydagi ko'zi ojiz bolalar tahsil oladigan maxsus maktab-internatni tamomlagan. U bolaligidan to'qishga qiziqqan, maktabda o'qib yurgan kezlari shu hunari bilan ustozlari e'tiboriga ham tushgan.

Asli chustlik Muxtorjon Rustamov Uchqo'rg'on tumani IIBda ishlab, shu yerda uy-joy qilib qolib ketadi. U o'g'li Muhammadjonga kelin izlab, Muharramxonga sovchi qo'yadi. Shunday qilib, lavhamiz qahramoni Uchqo'rg'onga kelin bo'lib tushadi.

To'quvchi kelinning mahoratidan qo'ni-qo'shnilar, mahalladagilar xabar topishdi. Qo'l mehnati bilan yaratilgan turli liboslarga buyurtmalar kelib tusha boshladi. Bejirim, chiroyli kiyim to'qishni o'rganish

niyatida mahallaning xotin-qizlari shogirdlikka ham tushishdi. Shu tariqa, Muharramxon oilasiga daromad keltirishni boshladi.

– To'quvchilik ham ijodiy ish, har bir to'qiganlarimdan nimadir yangilik yaratmagunimcha tinchimayman, –



deydi hunarmand ayol. – To'quvchilik oson hunar emas, u kishidan sabr-toqat, bardosh talab etadi. Nimadir yangilik kiritmasangiz, e'tibor qozona olmaysiz. Har bir to'qigan mahsulotim xaridorgir bo'lishining siri shunda bo'lsa kerak.

2021-yili tuman IIB boshlig'i, uchinchi sektor rahbari, podpolkovnik Otabek Jabborov hunarmand ayolni qo'llab-quvvatlash maqsadida unga sektor shtabida bo'sh turgan bino-inshootni ajra-

tishga yordam bergan edi. Keyin subsidiya asosida binoga o'nta to'quv dastgohi olib kelindi. Shundan so'ng ish ancha yurishib ketdi.

Muharram opa ayni paytda sektorda nogironlarni ish bilan ta'minlash, yoshlarni kasb-hunariga o'rgatish bo'yicha to'qimachilik yo'nalishida faoliyat yuritib kelmoqda. Bugunga qadar yuzdan ziyod shogird chiqardi, hozir bir vaqtning o'zida 25 nafar yosh undan to'quvchilik sirlarini o'rganib kelmoqda.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

IIV Faxriylar kengashi kengash a'zosi, iste'fodagi polkovnik Isroil Yuldoshevga akasi

Ikrom YULDOSHEVning
vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

AGAR QON QUYUQLASHSA...

Inson organizmidagi barcha jarayonlar qon yordamida amalga oshadi. Qon infeksiyalarga qarshi kurashadi, moddalar almashinuvidan ortgan chiqindilarni tashqariga haydashga hissa qo'shadi. Qonning rangi eritrotsitlar hisobiga qizil bo'ladi. Leykotsitlar immunitet uchun javob beradi. Trombotsitlar esa jarohatdan ko'p qon ketmasligi uchun qon ivishini nazorat qiladi. Aynan trombotsitlar qon quyuligiga ta'sir ko'rsatadi.

Quyuk qon tomirlarda juda sekin oqadi va kasalliklarga sabab bo'ladi. Chunki bunda to'qimalarga kerakli oziq moddalar yetib bormaydi va tanadagi ortiqcha illatlar chiqib ketolmaydi. Bundan tashqari, o'ta quyuk qonni haydashda yurak ham tez charchab qoladi.


Qon quyuklashishiga keksalik, organizmda suv yetishmovchiligi, ovqat hazm qilish tizimidagi surunkali xastaliklar, disbakterioz, to'laqonli ovqatlanmaslik, sifatsiz ovqatlar, ferment yetishmasligi, turli zamburug', virus va bakteriyalar, kuchli zo'riqish, stress, spirtli ichimliklar ichish, tamaki chekish, kamharakatlik, ifloslangan havo va o'ta issiq iqlim sabab bo'ladi. Sovqotish, qattiq asabiylashish, qandli diabet ham qon quyukligi sababchisi bo'lishi mumkin.

Har birimiz qon quyuklashishining belgilari haqida boshlang'ich ma'lumotga ega bo'lishimiz shart. Chunki u odam organizmidagi har qanday a'zo va tizimga jiddiy ziyon yetkazishi mumkin. Qoni quyuk kishilarda umumiy holsizlik, tez charchash, uyquchanlik, tez-tez bosh og'rish, qo'l va oyoqlar sovuq bo'lishi, jimirlashi, parishonxotirlik, depressiya, og'iz qurishi kabi alomatlar seziladi. Bulardan tashqari, yurak tez urishi, nafas qisishi, tananing turli qismlarida ko'karishlar paydo bo'lishi, tirnoq shakli o'zgarishi, ong karaxtligi kabilar ham kuzatiladi. Miyaga qon yaxshi yetib bormasa, bosh aylanishi, hushdan ketish ham sodir bo'lishi mumkin.

Tadqiqotlarda aniqlanishicha, qon quyuklashishiga olib keluvchi asosiy sabablardan biri kam suv ichish ekan. Bu qabziyatga, peshobga kam chiqishga sabab bo'ladi. Natijada ortiqcha moddalar qonga so'rilib, uning tarkibini yanada aynitadi. Shuning uchun barcha shifokorlar iloji boricha ko'proq suv ichishni

qon quyukligi aniqlansa, tezroq buning sababini bilish zarur. Qon quyukligi alohida kasallik hisoblanmay, qandaydir kasallik belgisi bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, qon quyukligi qon bosimi ko'tarilishiga, tromblarga, keyinchalik infarkt va insultga olib kelish ehtimoli bor.

Shuni unutmaslik kerakki, tromblar tomirlardagi



maslahat berishadi. Sog'lom odam kuniga kamida 2 litr (yozda 3 litr) suv ichishi zarur.

Qon quyuklashishining oldini olishda maxsus ovqatlanish tartibiga rioya qilish va tabiiy damlamalardan tashqari, ichish-chekishdan cheklanish, faol jismoniy harakatda bo'lish ham muhim o'rin tutadi. Iloji boricha ko'proq piyoda yurish va ertalab toza havoda badantarbiya qilish ham yaxshi samara beradi. Ba'zan qoningiz quyukligi o'zingizga belgi bermasligi mumkin. Sog'lom hayotga erishish uchun har yili bir-ikki marta qonning umumiy tahlili, qon ivish darajasi hamda qon tomirlar holatini tekshirtirib turish kerak. Agar tahlil topshirganda

qon quyuklashib qolishidan hosil bo'ladi. Odatda tromblar organizmni jarohatlardan himoya qiladi: qon quyuklashib, zararlangan kapillyar yoki venadan qon ketishini to'xtatadi. Vazifasini bajargandan so'ng bir necha soat yoki kun ichida u xavfsiz tarzda parchalanadi va yo'qoladi. Ammo har doim ham bunday bo'lavermaydi. Tromblar qon tomirlarida ham paydo bo'lishi mumkin. Ushbu holat tromboz deb ataladi. Ko'pincha kam harakat qiladiganlarning oyoqlariga ta'sir qiladi. Ammo ba'zi holatda tananing har qanday qismi xavf ostida bo'lishi mumkin.

Agar qotib qolgan qon umumiy qon oqimiga kirsam, yurak, miya yoki o'pkadagi qon tomirlari yo'lini to'sib qo'yadi. Bu yurak xuruji, insult yoki o'pka emboliyasi kasalligiga olib kelishi mumkin bo'lgan hayot uchun xavfli holatni yuzaga keltiradi.

Esingizda bo'lsin, qonni suyultiruvchi tabletkalar va tabiiy vositalarni me'yorida ko'p qabul qilish qonning haddan ortiq suyulishiga va ichki a'zolaridan qon ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun har qanday holatda davolovchi shifokoringiz bilan maslahatlashing.



BILIB QO'YGAN YAXSHI

Shakar, pishiriqlar, kartoshka, banan, tuxum, gazli ichimliklar, uzum, fastfud va qovurma taomlar, o'simliklardan – dalachoy va gazanda o't qonni quyuklashtiradi. Ularni imkon boricha taomnomada kamaytiring.

Qonning umumiy hamda biokimyoviy tahlilini topshirib, ichki kasalliklar shifokori (terapevt) ko'rigidan o'tish kerak. Muammoning yechimi oddiy dori preparatlarida bo'lishi mumkin. Lekin dori vositalarini o'z bilganingizcha, qabul qilishni maslahat bermaymiz.

Kun davomida sof suyuqlik – oddiy qaynatilgan yoki gazsiz mineral suvni 2,5–3 litrgacha ichish, qonni suyultiradigan mahsulotlar – anjir, sarimsoqpiyoz, ko'kpiyoz, shotut, bodring, sitruslilar, qizil bulg'or qalampiri, olma, olcha, limon, o'stirilgan bug'doy, pomidor, baliq, kakao, anor, dengiz karami, kungaboqar pistasini imkon qadar ko'proq iste'mol qilish kerak. Majnuntol, tut daraxtining ildizi va po'sti tabiiy aspirin hisoblanadi. Ushbu daraxtlardan birining po'sti yoki ildizini maydalab, bir osh qoshig'ini bir stakan suvda qaynatib ichilsa, qon tozalanadi va quyulishdan xoli bo'ladi.

Ertalab uyqudan turishingiz bilan ikki piyola issiq qaynatilgan yoki mineral suv ichib, ortidan bir osh qoshig'ig'ir yoki zaytun moyidan qabul qilishni kanda qilmang.

Yotishdan bir soat oldin piyoda sayr qilish, yugurish qonni suyultiradi. Bu mashqni uyda, turgan holatda ham bajarish mumkin.

Davolovchi shifokor bilan maslahatlashib, zuluk bilan davolanishni ham sinab ko'rsa bo'ladi. Faqat ushbu muolaja



maxsus tibbiy muassasalarda, mutaxassis nazorati ostida bajarilishi shart. Bilib-bilmay, o'zingiz mustaqil qo'llamang.

Maydalangan dafna yaprog'ining bir choy qoshig'i bir chimdim ko'k choy, ikki bo'lak limon bilan aralashtirib, damlanadi. Ozroq asal qo'shib, choy singari kun davomida ichiladi. Shuningdek, zanjabil va dolchin solib damlangan choylar ham ushbu muammoni tez va samarali hal etishda yordam beradi.

Tohirjon RAHMONOV,
Namangan viloyat IIB Tibbiyot bo'limi
SENM shifokor-epidemiolog yordamchisi.



★ Навруз пришел!

ЛЕГЕНДА О ПОЯВЛЕНИИ СУМАЛЯКА

Давным-давно жила-была женщина, и было у нее двое сыновей. Звали их Хасан и Хусан. Так как женщина была вдовой, жили они бедно и еды у них было очень мало, поэтому ее сыновья всегда

плакали от голода. Однажды, мать мальчиков очень устала от их плача, но у нее не было никакой еды, чтобы покормить их. Так, вечером, после того как дети легли спать, она попросила соседа дать

немного пшеницы, затем взяла горшок и положила в него 7 камней, налила воды и перемешала все с пророщенной пшеницей. Ее сыновья, услышав шум, решили, что мать готовит что-нибудь вкусное. Успокоившись, они закрыли глаза и заснули. Чуть позже уснула и мать. Проснувшись рано утром она увидела 30 ангелов, стоящих вокруг горшка. От такой радости она разбудила своих сыновей. В своем волнении они подбежали к горшку и обнаружили, что он заполнен очень вкусной кашей. С того времени мальчики никогда не были голодными. Еда же, получила название «Сумальяк», которое узбекские люди переводят, как «30 ангелов».



ДРОЗД – ПТИЦА ПЕВЧАЯ

Первыми весну чувствуют Дрозды. Еще не порозовел восход, еще все покрывается в утреннем сне, а за окном уже кто-то заводит радостную весеннюю песню. В первых трелях пока нет чистоты звука, словно невидимый музыкант, настраивая инструмент, наугад трогает струны. Но вот опытные пальцы вывели аккорд, и в едва засиневшем утреннем воздухе поплыли чарующие переливы. Дрозд, молчавший всю зиму, известил мир о приходе самого удивительного праздника природы – весны.

Весну встречают на земле песней и весельем не только птицы, но и люди. Издревле у восточных народов существует священный и прекрасный обычай отмечать приход лучшего времени года торжественно – в кругу селян, жителей махалли, сотрудников, украшая общий дастархан праздничными блюдами, произносить за столом в честь друг друга здравницы, зачаровываться волшебным звучанием дутара и дойры, петь и танцевать.

Навруз пришел! С праздником вас, дорогие соседи, уважаемые коллеги, земляки! Пожалуйста за наш дастархан. Чем богаты, тем и рады. Дай Бог всем здоровья и счастья. Так говорят в народе.

И снимает долгожданный Навруз с души груз зимней хмури. И оживает она. И солнце все больше набирает силу и яркость. И чаще улыбаются друг другу люди: весна пришла на нашу благословенную землю.



Древний восточный обычай несет в себе большую символику. Человек не может радоваться жизни в одиночку. Даже такому празднику, как Навруз. Поэтому люди сходятся вместе, чтобы улыбка каждого отразилась на лицах других, чтобы радость множилась и отзывалась в сердцах ближних.

В жизни не так уж много радостей. Поэтому их нужно создавать. Такой славный праздник со-

здали для себя и для нас древние и мудрые предки.

Дрозд – птица особенная, благородная, питающаяся довольно скудной пищей – почками с ветвей деревьев. Тем не менее она не скупится на отдачу и радует всех своими удивительными трелями. Думается, в этой птице живет душа нашего славного народа. Пусть повсюду звучат весенние песни. Навруз пришел!

MUNAJJIMLAR BASHORATI (25-martdan 31-martgacha)



Qo'y. Begim kunlari salbiy holat va munosabatlariga ta'sirchanligingiz ortadi. Uy tashvishlari, oilaviy munosabatlar xayollaringizni butunlay qamrab oladi. Nima bo'lganda ham, o'zingizni qo'lga olib, hayot tashvishlariga xotirjamlik bilan qarang.



Buzoq. Kasbiy faoliyatingizda yuksalish kuzatilib, ish unumdorligi ortadi. Rejadagi har bir ishni ortga surmay, o'z vaqtida bajarishga harakat qiling. Hafta o'rtalarida oila a'zolaringiz bilan tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Dam olish kunlari yaqinlar bilan munosabatlarni mustahkamlash uchun qulay davr.



Egizaklar. Kelayotgan hafta moddiy holatni anchayin yaxshilab olish uchun barcha imkoniyatlarni taqdim etadi. Hayotingizga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan odamlar bilan tanishish ehtimoli yuqori. Shanba kuni o'ta ishonuvchanlik sizga pand beradi. Yakshanba har jabhada ijobiy natijalarni va'da qilmoqda.



Qisqichbaqa. Salomatlikka jiddiy e'tibor qaratish. Jismonan og'ir vazifalardan chetlashib, ta'bni xira qiluvchi va ko'ngilni og'rituvchi barcha holatlardan uzoqlashish. Oddiy hayot tarzidan oz bo'lsa-da chetga siljish kayfiyatingizga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yaqin va qadrdon insonlar bu davrda ruhiy ko'mak berib, sizni qo'llab-quvvatlashadi.



Arslon. Qancha ko'p mehnat qilsangiz, hamkasblar orasida shuncha ko'p hurmat va e'tiborga sazovor bo'lasiz. Ertalab ishga vaqtliroq kelish yoki kechqurun kechroq ketishdan cho'chimang – barcha sa'y-harakatlaringiz mukofotini olasiz. Biroq bu davrda oila a'zolaringizni ham unutib qo'ymang.



Parizod. Hafta omadli keladi. O'zingiz uchun aynan kim qadri ekanini anglab yetasiz va bu sizni yoqimli hayratga soladi. Moliyaviy masalada yaxshi xabar yoki katta maoshli yangi lavozimga taklif olishingiz mumkin.



Tarozi. Bu hafta eng qiziqarli va omadli davrlardan biridir. Shu kunlarda kuch-g'ayratli va tashabbuskor bo'lishga, har qanday maqsadga erishishga intiling. Dam olish kunlari ogohlikni qo'ldan boy bermay, imkon qadar ehtiyotkor bo'ling. Chunki ayni shu vaqt oralig'ida noxush vaziyatga tushib qolish ehtimoli yuqori.



Chayon. Bu davrda charchoq, holsizlik, ruhiyatning tushishi kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Imkon qadar dam olishga va kuch to'plashga harakat qilib, salomatlikka jiddiy e'tibor qaratish. Faqat shundagina o'z rejalaringizni, jumladan, moliyaviy masalalarni hal etishga muvaffaq bo'lasiz.



O'qotar. Qobiliyatlarni namoyon etish, nostandart yechimlarni topish, ish joyida yuqori pog'onalarni egallash qo'lingizdan keladi. Maqsadga erishish yo'lida xalaqit qilayotgan barcha narsalardan qutulung. Ba'zi rejalaridan voz kechishga to'g'ri keladi, ularni yanada qulay vaqt kelguncha ortga surib turganingiz ma'qul.



Tog' echkisi. Ruhiy o'sish, bilimlarni boyitish uchun maqbul davr. Kuchli iroda va maqsad sari intilish tufayli har qanday istakka erishish mumkinligini unutmay. Dam olish kunlari atrofdagilar bilan munosabatda tushunmovchiliklar yuzaga kelishi ehtimoli yuqori. Demakki, biroz yolg'iz qolish, o'y-fikrlarni tartibga keltirish vaqti yetdi.



Qovg'a. Murosa qilish qobiliyati va kuchli ichki sezish hissi daromadli loyihalarda ishtirok etish imkoniyatini beradi. Nimanidir qurbon qilishga to'g'ri keladi, biroz shunda ham hech narsa yo'qotmaysiz, chunki hammasi foyda bilan qaytadi. Siz uchun muhim tavsiya: zo'r berib o'z nuqtai nazariningizni himoya qilishga urinmay, ayniqsa, nohaq ekaningizni bila turib.



Baliq. Bu davrda to'g'ri yechimlarni topish oson kechadi. Sizdan nima kutishayotganini ichdan his qilganingiz uchun kuchli mas'uliyat va kasbiy mahoratni namoyon eta olasiz. Biroq o'zingizni yomon his qila boshlasangiz, biroz ta'til olishni tavsiya etamiz. Vaqtni toza havoda, tabiat qo'ynida o'tkazish siz uchun juda foydali bo'ladi.



XUSH KELDING, NAVRO'Z!

Milliy o'yinlar, bobomeros qadriyatlar

«Ot mindi»

«Ko'pkari»

«Chillak»

«Ol buni»

Keyingi vaqtda yoshlar, umuman, aholi o'rtasida xalq o'yinlari va milliy sport turlariga e'tibor oshmoqda. Ayniqsa, Navro'z bayrami arafasida arqon tortish, kurash, tosh ko'tarish, uloq-ko'pkari musobaqalari doimiy o'tkazib kelinyapti.

O'g'il bolalar «Chillak», «Tortishmachoq»ni yaxshi ko'rsa, qizlar «Supur-supur», «Oq terakmi, ko'k terak?», «Happak tosh» kabilarga qiziqqan. O'yinlarga e'tibor bersangiz, hammasi ham harakatdan yoki jismoniy va aqliy mehnatdan iborat. Masalan, tez aytish bilan bolalar nutqidagi nuqsonlar to'g'rilangan bo'lsa, topishmoqlar orqali zehni o'tkirlashgan. Tortishmachoq, chillak kabi o'yinlar bolalarning jismoniy imkoniyatlarini yanada oshirgan.

Vaqt o'tishi bilan bu harakatlar takomillashib borgan. «Tosh ko'tarish», «Ot ustida kurash», «Ko'pkari», «Tepki», «Arqon tortish», «Chillak» va boshqa shu kabi xalq o'yinlari ko'rinishiga kelib, yoshlarning sevimli mashg'uloti va musobaqalariga aylangan.

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Bobomurod TOSHEV
Abror POYONOV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uzE-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.Tahririyatga kelgan qo'l-
yozma va suratlar egasiga
qaytarilmaydi.Nashrimizdan ko'chirib bosil-
ganda manba ko'rsatilishi shart.Gazeta tahririyat kompyuter
markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^a-uy.Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma №955.

Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50436 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.www.postda.uzt.me/postdarasmiywww.facebook.com/postdauz